



IT PARK
START LOCAL GO GLOBAL



INNOVATSIYA 2022: DOLZARB MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN

OZBEKISTON DAVLAT JAHON
TILLARI UNIVERSITETI

UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

5 - OKTABR
TOSHKENT-2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
ILMIY INNOVATSION ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH
BO‘LIMI

«INNOVATSIYA 2022: DOLZARB MUAMMOLAR VA
ZAMONAVIY YECHIMLAR» RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
TO‘PLAMI

Toshkent, 5-oktabr 2022-yil

Mas’ul muharrir: Filologiya fanlari doktori, professor G.Bakiyeva
Nashriyot va tahririyat bo‘lim boshlig‘i I.Kaxarova

Tahrir hay’ati: Nashriyot va tahririyat bo‘lim muharriri S.Azizov



BRM 4-maqсад. Umumqamrovli
va adolatli sifatli ta’limni
ta’minlash hamda barchaga butun
umri davomida ta’lim olish
imkoniyatini rag‘batlantirish

Ushbu to‘plamda e’lon qilingan ilmiy maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Toshkent – 2022

MUNDARIJA

1.	Бакиева Г.Х., Шарипова Д. Д., Хушвактова Х.С. Актуальные проблемы повышения социальной активности студентов в условиях третьего ренессанса	7 bet
2.	Qodirova F.Sh. Tilshunoslikda diskurs va diskurs tahlil	11 bet
3.	Xasanbayev X. X., Qo‘ysinova F. O. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishning texnologik asoslari	16 bet
4.	Muradkasimova K.Sh., Eshimbetova N. The efficiency of the credit modular system in higher education	20 bet
5.	Yuldashev A.G. Metafora konseptual integratsiya hosilasi sifatida	24 bet
6.	Ergasheva G. I., Imonberdiyeva M. A. The phonetics laboratory as a hub for teaching and research	29 bet
7.	Xolov N.Q. Elektron pulning funksiyalari va konseptual yo‘nalishlari	36 bet
8.	Xushvaktova X.S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanini o‘qitish metodlari	43 bet
9.	Madraximov T.A. Ingliz tili so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan so‘z yasash qo‘shimchalarini ishlatilishi	48 bet
10.	Рахмонов А.Б. К вопросу об использовании онлайн-сервисов для проверки знаний учащихся	51 bet
11.	Norov A.E. O‘zbekistonda ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimi holati	54 bet
12.	Kaxarova I.S., Minosidinov Sh.B. O‘zbek tilida taqlid so‘zlarning ahamiyati	57 bet
13.	Сулаймонов Б.Б. Инновационная модель системы поддержки принятия решений командира подразделения радиоэлектронной борьбы	62 bet
14.	Pardaeva D.T. A corrective approach to the development of linguistic competence of future teachers	69 bet
15.	Abdullayeva F.S. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion rivojlanishning omili sifatida	73 bet
16.	Xolov N.Q. O‘zbekistonda elektron hamyon tizimi amaliyoti	76 bet
17.	Inamova G.A. The benefits of phonetics in teaching English for developing communicative skills	80 bet
18.	Лямкина В.А. Роль мультимедийных технологий в процессе обучения иностранным языкам в системе непрерывного образования	86 bet
19.	Abdullayeva M.M. O‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	89 bet
20.	Norov A.E. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ishlanmalarni tijoratlashtirilishining ahamiyati	92 bet

21.	Abduganiyeva J.R. Effective teaching methods of written translation	99 bet
22.	Пардаева Д.Т. Лингвистическая способность как основная составляющая иноязычной коммуникативной компетенции	102 bet
23.	Jakbarov M.P. Kognitiv tilshunoslikda konseptual maydon tushunchasi va uning talqinini yaratish	106 bet
24.	Radjabova G.G. Corpus tools to teach English vocabulary	110 bet
25.	Хафизова М.А. Роль игровой технологии в процессе формирования речевых навыков и умений студентов	115 bet
26.	Бекирова Э.М. О зоосимволе «Кролик» в корейских пословицах	121 bet
27.	Khazratova G.Sh. The enhancement of intercultural communication skills when mastering a foreign language	124 bet
28.	Pozilova D.X. Zamonaviy ta'limning shiddat bilan raqamlashuvi va axborotlashuvi	127 bet
29.	Abbasova D.K. O'zbek tili ta'limi chet tili sifatida (qo'shma gaplarning nazariy yechimi)	131 bet
30.	Mirsaidov A.A. On some facts of the functional aspect of English articles	134 bet
31.	Mamatova D.M. Xitoy tilida sinonimlarni o'qitish metodlari	138 bet
32.	Jakbarov M.P. Principles for communicative language learning	142 bet
33.	Алимханова Н.А. Научно-педагогическое творчество и нравственно-воспитательное наследие мыслителей востока	145 bet
34.	Икрамова Р.Б. Современные технологии (веб квест) и подходы в преподавании и изучении английского языка	148 bet
35.	Kim Yun Hye. Comparison of pronunciation education of integrated Korean textbooks in Uzbekistan	152 bet
36.	Shukurova Sh.K. Modern techniques for critical thinking development in teaching foreign languages	154 bet
37.	Khamroyeva Sh.I. Word stress. Its types and components	163 bet
38.	Xolboboyeva A. Sh. Ekstralingvistik omillarning reklama diskursidagi o'rni	166 bet
39.	Toshboyeva L.J. Ichki turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv orqali talaba yoshlar orasida ommalashtirish	169 bet
40.	Xolmurodova M. A. Abdulla Qodiriy nasrida qo'llangan "ma'naviyat" tushunchasini ifodalovchi birliklarning leksikografik talqini	172 bet
41.	Urinboeva Kh.M. The use of distance educational technologies in developing students' linguistic competence	175 bet
42.	Abduraxmanova M.M. "Bir makon, bir yo'l" loyihasi xalqaro hamkorlikning manfaatli modeli	178 bet

43.	Moydinova E.K. Zamonaviy ta'lim tizimida veb-resurslardan foydalanish istiqbollari	181 bet
44.	Juraev Sh.B., Shaymardanov A.H Computational linguistics: development of automatic text editing softwares.	185 bet
45.	Omonov B.X. Ingliz va o'zbek tillarida geologiyaga oid terminlar o'zlashishi kognitiv jarayon sifatida	187 bet
46.	Nishonbekova S.U. The importance of writing and listening skills in language teaching	191 bet
47.	Фозилова М.А. Инновационная педагогическая технология и роль преподавателя в повышении качества подготовки студентов в высшей школе в современных условиях.	195 bet
48.	Shamsutdinova L.R. A principle of autonomous learning in the development of pragmatic competence	200 bet
49.	Azizov S. U. "Blended" til ta'limi muhiti va pedagogik oliy ta'lim integratsiyasidagi istiqbolli imkoniyatlar	203 bet
50.	Saidova N.A. Fentezi va ertak nisbati	207 bet
51.	Abdullayeva N.S. Huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish	210 bet
52.	Амонова З.Б. Общественно-политические неологизмы в немецком языке: пути появления и интеграция	214 bet
53.	Sunnatova G.E. Fransuz tilidagi toponimlarining so'z yasash modellari	217 bet
54.	Madiyorova M.A. Semantic and functional features of lexical units in English discourse	221 bet
55.	Boboqulov A.R. Buyumlar internetining tarixi va kelajagi	224 bet
56.	Abdusalomova Z. M. Importance of teaching vocabulary to EFL learners	228 bet
57.	Abdullayeva F.S. Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishdagi davlat siyosati	232 bet
58.	Отаханова М.Д. Роль тюркизмов в переводной литературе	235 bet
59.	Qodirova M. E. Views on the concept of the terms "Pilgrimage tourism" in linguistics	240 bet
60.	Odilova L.X. Irony and sarcasm in the English and Uzbek languages	244 bet
61.	Anarbekova G.N., Abduvahobova.M., Turg'unova R. The mass media issues, political pattern and the "politeness" function of euphemisms in political media discourse	246 bet
62.	Shavkatov A.D. Multilingual writers' composition peer editing	250 bet
63.	Bayniyazova M.X. Features, elements of the Uzbek national dresses and their translations	253 bet

64.	Kurbaniyazova M.R. Development of the English language in the USA	257 bet
65.	Халимова Н.Д. Специфика сатирической новеллы А. П. Злобина «Этот младенец Акопян»	264 bet
66.	Abduvaliyeva F.S. Translation gloss of Navoi's ghazals	267 bet
67.	Sa'dullayeva Sh.I. Pragmatic aspects of translating advertisements	270 bet
68.	Усмонов О.И., Султонова Ш.М. Проблемы организации научно-исследовательской деятельности учащихся высших образовательных учреждений	274 bet
69.	Ҳахуоро'latova N.B. Хорижий tillarni o'rganishning inson hayotidagi ahamiyati	277 bet
70.	Omonova M.B., Inomjonov O.Sh. Parallel corpus of literary texts in the context of translation	280 bet
71.	Байкуватова Д.Б. Язык и нация: теория лингвистической относительности	286 bet
72.	Umarkulova D.S. Methods of teaching English using modern educational technologies	291 bet
73.	Valieva N.Z. Code-switching: a useful foreign language teaching tool in EFL classroom	294 bet
74.	Иманбердиева М.А. Современные методы преподавания иностранных языков: метод Берлица	300 bet
75.	Isroilova J.Y., Toshboyeva M.E. Ingliz tilini mustaqil o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodlari	305 bet
76.	Садиртинова Д. Р. Влияние англицизмов на русскую спортивную терминологию (на примере киберспорта)	308 bet
77.	Кутбиддинова З.И. Роль инновационных технологий в преподавании иностранного языка	312 bet
78.	Oblakulova D.J., Bozorova S.B. The productive usage of technologies to develop productive skills of ESL students	315 bet
79.	Akramaliyeva B.I. Development of oral speech in english language	318 bet
80.	Abdullaeva Sh.N. The distinctive features between word and term	322 bet
81.	Kim Yun Hoe The contents and plan of Korean phonological rules education for Uzbekistan students. Phonetic rules education content and sequence	325 bet
82.	Ibrokhimova M.U., Shukurova Sh.K. Sing corpora in foreign language teaching	328 bet
83.	Isroilova J. XXI asr yoshlari orasida chet tili va adabiyotini o'rganishdagi intellektual salohiyatni oshirish	334 bet
84.	Oblakulova D.J. Applying an intercultural competency curriculum in the english classroom	338 bet
85.	Davronova S. U., Abdullayeva F.S. Importance of public signs and their translaton for tourists	341 bet
86.	Мамасадиқова Д.Р. Сведения о личных фондах ученых конца XIX – начала XX вв. в НАУз	347 bet

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Бакиева Г.Х.
УзГУМЯ проф.,
Шарипова Д.Д.
ТГПУ проф.,
Хушвактова Х.С.
УзГУМЯ доц.

Общество, вступившее в третий Ренессанс, остро нуждается в молодежи, проявляющей высокую социальную активность и занимающей устойчивую гражданскую позицию в условиях изменяющейся социальной среды [1].

В республике принята стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в которых определены 7 основных направлений развития общества на ближайшие пятилетия.

Внеучебная деятельность вуза является неотъемлемой частью процесса качественной подготовки специалистов, целостной динамической системой учреждения высшего профессионального образования, ее системообразующим фактором является цель - развитие активности личности студента, реализуемая во взаимодействии его с вузовским сообществом, окружающей социальной средой; в оказании поддержки и помощи студенту в самореализации и творчестве, готовности к отстаиванию своей независимости и ответственности, в становлении его способности самостоятельно решать возникающие проблемы. [2]

Понятие «социальная активность», согласно педагогическому словарю, определяется как совокупность методов, процедур, направленных на изменение социальных условий в соответствии с потребностями, целями и идеалами, на выдвижение и реализацию социальных инноваций, формирования в себе необходимых социальных качеств [3].

Одной из актуальных проблем современности является формирование социальной активности молодежи, которая по-разному ставилась

и решалась в различные периоды развития нашего общества. Особая роль в повышении социальной активности молодежи отводится учебным заведениям. Актуальность и востребованность реализации данной проблемы весьма очевидна и поэтому она была поддержана педагогической общественностью, отметившей, что её надо осуществлять на разных этапах развития личности особенно в подростковом и юношеском этапах.

В этой связи был подготовлен проект для студенческой молодежи «Повышение социальной активности молодёжи и участия в гражданском обществе – эффективный путь её социализации» в реализации которого партнерскую поддержку оказал Фонд им. Ф. Эберта в Узбекистане. Бенефициарами данного проекта были студенты Узбекского государственного университета мировых языков, тренерами являлись доктора педагогических наук Г.Х. Бакиева, Д.Д. Шарипова, Ф.М. Рашидова при участии волонтеров доцентов Х.С. Хушвактовой, Ф.С. Абдуллаевой. Проведение семинаров тренингов предусматривало рассмотрение таких тем, как социальная активность молодежи, её гражданская позиция, о которых давали основные понятия модераторы тренинга.

В качестве актуальных проблем были выявлены пять, наиболее часто участники тренинга выбирали такие темы, как: экология, образование, коррупция, формирование личности и проектная деятельность.

Работая в малых группах, участники определяли, в чем заключается неотложность решения проблемы и что для этого следует делать, а затем представляли очень креативно выполненные презентации. Рассмотрим несколько из презентаций, подготовленных участниками тренингов, в частности, посвященные актуальным вопросам экологии, в числе причин возникновения экологических проблем были названы: глобальное потепление, незаконная охота – браконьерство, вырубка лесов и деревьев в городе, разрушение озонового слоя, загрязнение воздуха промышленными предприятиями и выхлопными газами, образование мусорных свалок, загрязнение мирового океана морей, рек и озёр,

что приводит, по мнению студентов к угрозам нарушения экологической устойчивости. После выявления угроз и факторов, влияющих на окружающую среду, участники назвали наиболее эффективные пути преодоления этих негативных воздействий.

В первую очередь, это экологизация сознания и мышления населения, направленные на охрану природы и окружающей среды, что способствует социализации личности - процессу усвоения индивидом образцов поведения, психологических установок, положительных норм и ценностей, знаний, навыков по бережному отношению и сохранению всех экологических компонентов и активное включение личности в систему общественных отношений по оздоровлению среды.

Студенты высших учебных заведений осознали глобальную проблему нехватки чистой воды, которая является наиболее серьезной экологической проблемой, при этом были названы следующие: эффективные пути улучшения экологической ситуации, увеличение числа электромобилей, использование ветровой энергии, широкое использование солнечных батарей, как источников экологически чистой энергии, отдельный сбор мусора и его использование по безотходным технологиям, повышение экологических знаний различных групп населения.

Практика показывает, что на сегодняшний день задаче воспитания социальной активности студентов уделяется недостаточно внимания. Большинство студентов демонстрируют несформированность социальной выработке современного мировоззрения и выбора жизненного пути, самореализации, пассивные формы проведения свободного времени. По итогам тренинга студенты высказали свое мнение по тому, что они получили в результате проведенного мероприятия: получили мотивацию к самореализации своих целей, задумались над разными источниками дохода, научились самостоятельно мыслить и проявлять инициативу, появилось желание писать

гранты и заниматься малым бизнесом, отличный опыт для осуществления последующих планов и т.д.

На таких тренингах видишь, с каким вниманием студенты слушают тренеров, насколько глубоки, мудры и поучительны их выступления, наставления и советы. Встречи просто необходимы и полезны для мотивации и активизации социальной их позиции. После тренингов студенты уходят уверенными в своих возможностях, готовыми к покорению новых вершин.

К сожалению наш тренинг проводимый при поддержке фонда Ф.Эберта не может охватить всех студентов университета. Студенты далеко не всегда имеют собственную мотивацию, а боль зависят от внешних стимулов. Именно поэтому актуальной задачей тренеров становится разработка эффективной системы стимулирования активности студентов. Для повышения мотивационной составляющей студентов к научной, спортивной, экологической, трудовой и социально-значимой деятельности необходима их популяризация в академической среде. Достичь социальной активности студентов можно путем постоянной целенаправленной пропаганды путем проведения тренингов и семинаров.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

- 1.Тоджибаева Х.М., Педагогическая система в повышении социальной активности учащихся. Автореф. Дис. Доктора философии (PhD)по педагогическим наукам. Ташкент 2018.
2. . Несговорова Н. П. Влияние внеучебной работы на формирование экологической культуры студентов. Курган 2009 г
3. Педагогический словарь. Под редакцией В.И.Загвязинского, А.Ф.Запуговой. М.: Издательский центр “Академия” 2008 г.

TILSHUNOSLIKDA DISKURS VA DISKURS TAHLIL

Qodirova Fazilat Shukurovna , f.f.f.d., dotsent

Innovatsion rivojlanish vazirligi

Inson kapitalini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i

fazilatqodirova@gmail.com

Nutq bo'yicha tadqiqotlar 1970 yildan ilgari boshlangan bo'lsa-da, "2000 yil oldin mumtoz she'riyat va ritoriklar matnlarning strukturaviy modellari: she'riyat, drama va sud yoki siyosiy nutqning namunalari keltirgan" deb ishoniladi. 1935 yilda tilshunos Firt tilshunoslarning e'tiborini tilni kontekstda mazmunan o'rganishga qaratishga harakat qildi, chunki u shu tarzda til nima ekanligini va uning qanday ishlashini yaxshiroq tushunish uchun kalitni topishga ishonadi. Uzoq vaqt davomida olimlarning diqqat markazida matn va kontekst bilan bog'liq bo'lmagan gaplarning fonologik, morfologik, sintaktik, keyinchalik esa semantik jihatlari bo'lgan.

Ross, Makkoli va Lakoff 1960-yillarning oxirida Xomskiy bilan birinchi bo'lib bahslashdilar va grammatikani ma'nodan alohida ta'riflab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari surdilar. 1972-yilda R.Lakoff nutq birligining ijtimoiy kontekstining ahamiyati, shuningdek, muayyan nutqda ishtirokchilar tomonidan aytilgan taxminlar haqida yoza boshladi [1]. Olimlar diskurs tahlili funksional tilshunoslikning markaziy jihati degan xulosaga kelishdi va buning sababi nimada ekanligiga qiziqishdi. Funksionalizm "kuzatib bo'ladigan lingvistik shakl"ni tushuntirishga harakat qiladi. Ularning fikricha, shakl "asosan shakllangan va real vaqt rejimida ishlash bilan izohlanadi va tilning real vaqtdagi faoliyati - bu nutq"[2].

"Diskurs" atamasi doimiy ravishda til aloqasining protsessual va faoliyat tavsifi doirasida o'rganish ob'ektiga murojaat qilish uchun ishlatilgan bo'lib, u muloqotning faol sub'ektiga va tegishli kommunikativ-pragmatik, kognitiv, semantik va yangilangan boshqa parametrlarga qaratilgan. uning nutq faoliyati jarayoni"[3] Shu bilan birga, "matn" tushunchasi nutq faoliyatining to'liq, qat'iy "mahsulotlari" ga

nisbatan qo‘llanila boshlandi, "ularning tahlili matnlarning ma’nosini aniqlashga qisqartirildi, ob’ektiv va qat’iy semantik tuzilmaning bir turi sifatida qaraldi.

Uzoq vaqt davomida "matnlar" badiiy asarlar qahramonlarining og‘zaki nutqiga taqlid qilish yoki badiiy tahlil qilish uchun material bo‘lib xizmat qildi. Spontan tabiiy nutqni tahlil qilish uzoq vaqt davomida lingvistik tavsifdan tashqarida qoldi. Ammo tilning funksionalligini o‘rganishga kommunikativ-faol yondashuvning rivojlanishi tilshunoslarning e’tiborini lingvistik tahlil ob’ekti bo‘lgan nutq deb ataladigan og‘zaki nutqni amalga oshiradigan til faoliyatining protsessual jihatlariga qaratdi. Nutqqa bunday yondashuv "muloqot jarayonida tildan foydalanishdan tashqari muloqot ishtirokchilari bir-biriga nisbatan ma’lum kommunikativ harakatlarni amalga oshirishini nazarda tutadi. Shunday qilib, inson muloqotining faoliyat yo‘nalishini ta’kidlagan holda, nutq shaxslararo og‘zaki o‘zaro ta’sirning usuli / shakli sifatida qaraladi. Bunday talqin hozirgi vaqtda lingvistik o‘zaro ta’sir tahlilini faqat og‘zaki muloqot doirasi bilan cheklab qo‘ymaslik, balki yozma muloqotni ham hisobga olishga imkon beradi [4].

" Diskursiv tahlil maktabi" yoki "diskursiv tahlil " (Discourse Analysis) nomini ta’minlagan tilshunoslik yo‘nalishi hozirgi kunda eng ommabop bo‘lib, bir qator tilshunoslik fanlari uchun dolzarbdir. Ushbu fanlarning har biri nutqni og‘zaki o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida yoki uning natijasi sifatida ko‘rib, nutqning ma’lum jihatlar va xususiyatlariga e’tibor qaratadi.

Diskurs tadqiqotining an’anaviy jihatlaridan biri uning sintaktik tuzilishidir. Ushbu yo‘nalish "matn grammatikasi" yoki "diskursiv grammatika" (diskurs grammatikasi)ga asoslanadi, bu "jumladan kattaroq" tuzilmalar ichidagi grammatik munosabatlarni tavsiflaydi. Diskursiv grammatika uchun tadqiqotning asosiy jihati matndagi jummalarni tashkil qilishning sintaktik naqshlari va ularning grammatik xususiyatlari, turli xil uyg‘unlik shakllari, so‘z tartibining funksional xususiyatlari, shuningdek, ularning kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarning tarqalishi bilan bog‘liqligidir.

Nutqni o'rganishning yana bir jihati uning semantik tuzilishidir. Semantik tahlil nutqning taklif tuzilishini o'rganishga asoslanadi: nutqni tashkil etuvchi takliflarning mazmuni, shuningdek, ularning mikro va makro darajadagi chiziqli va global uyg'unligi.

L.V.Surikova ta'kidlaganidek, "muloqotni kommunikativ o'zaro ta'sirning mahsuli sifatida tushunishga asoslangan barcha yuqorida aytib o'tilgan yondashuvlar, asosan, uni o'rganishning lingvistik jihatlariga qaratilgan bo'lsa-da, chuqurroq o'rganib chiqqach, ularning har biri ko'lamini kengaytiradi, to'g'ri lingvistik tavsif va boshqa tahlil darajalariga o'tadi.

Diskurs nafaqat tilshunoslar tomonidan o'rganiladi. Hozirgi vaqtda diskurs kognitiv va ijtimoiy psixologiyada ham o'rganilmoqda, bu esa uni etnometodologiya va etnolingvistikaga yaqinlashtiradi.

Insonning kognitiv faoliyatini "dunyo bo'ylab sayohat qilish qobiliyatini rivojlantirish" deb hisoblash mumkin. Bu faoliyat ob'ektlarni aniqlash va farqlash zarurati bilan bog'liq. Kognitiv tilshunoslik o'zining mavjudligi davrida turli o'zgarishlarni boshdan kechirdi va turli yo'nalishlarda rivojlandi. E.S.Kubryakova ta'kidlaydiki, kognitiv tilshunoslik rivojlanishining muhim bosqichi uning semiotika bilan bog'liqligini aniqlashdir. Kognitiv fan, shubhasiz, fanlararo bo'lsa-da, kognitiv fan homiyligida rivojlanayotgan fanlar va bilim sohalari orasida semiotika eng kam tilga olinadi. Biroq, dastlabki kognitiv tadqiqotlarning butun seriyasida ma'lum bir semiotik fonning rivojlanishini kuzatish mumkin. Tildagi ramzlashuv jarayonlari haqida ko'p gapiradigan R.Langakerning kognitiv grammatikasi til grammatikasi "an'anaviy til belgilarining tuzilgan inventarizatsiyasi" ekanligini ta'kidlaydi [5].

Kognitiv tilshunoslikning semiotika bilan yaqinlashishi, E.S.Kubryakovaning fikriga ko'ra, juda mantiqiy ko'rinadi, chunki aqliy tasavvurlar tushunchasi va dunyoni shaxs tomonidan tasvirlash muammosi kognitiv fanning huquqiy tushunchalariga kiritilgan. Aqliy tasavvurlar, ta'rifiga ko'ra, "haqiqiy yoki xayoliy dunyoda biror narsa o'rnida turadi va shuning uchun fikrlash jarayonlarida bu narsani almashtiradi" ekan, bu ularning ramziy tabiati haqida gapiradi va ularni semiotika bilan bevosita bog'laydi.

Zero, 1970-yillarning boshida N.Xomskiy tilning “yaxshi oqibatda uning aqliy tasviri shaklidan boshqa hech qanday mavjudot yo‘q”, deb e‘lon qilgan edi [6].

Shuni ta‘kidlash kerakki, ko‘pgina olimlar vakillik tushunchasining o‘zini tilshunoslik doirasida tasvirlab bo‘lmaydi, deb hisoblashadi. Til shakllarining inson ongida qanday ifodalanishiga faqat psixolingvistlarga javob bera oladi, deb ta‘kidlaydi V.Kraft. Ammo D.Sandra “Tilshunoslar inson ongi haqida sizga nima ayta oladi va ayta olmaydi?” asarida o‘z nuqtai nazarini asoslab, unga e‘tiroz bildiradi. Ushbu masala bo‘yicha bahs-munozaralar bizga vakillik muammosini e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi va uni "aniq semiotik muammo sifatida ko‘rib chiqmasdan hal qilib bo‘lmaydi" degan xulosaga kelishga imkon beradi.

E.S.Kubryakov ta‘kidlaganidek, “zamonaviy tillarda ko‘plab yangi tushunchalar hosila so‘z kabi “to‘plam”da shakllanadi, ikkinchisi ko‘pincha nominal (lingvistik) ta‘rif bilan yaratilgan belgidir.

Kognitiv olimlarning birinchi avlodi o‘z fanlari doirasini cheklashga harakat qildilar. Masalan, X.Gardner “kognitiv tuzilmalar va jarayonlarni o‘rganishda hissiy, tarixiy, madaniy va boshqa omillardan abstraktlashtirish mumkin”, deb ta‘kidlagan. Ikkinchi avlod kognitiv olimlari aqliy aloqani aniq ta‘kidlaydilar. Bu omillarning barchasi bilan insoniy jarayonlar. Shunday qilib, kognitiv fanda ham, kognitiv tilshunoslikda ham tadqiqot vazifalari va qiziqishlarini kengaytirish yo‘lida muhim qadamlar allaqachon qilingan. Ikkinchi avlod kognitiv tilshunoslik predmeti – dunyoni kontseptuallashtirish va turkumlashtirish, polisemiya, kontseptual metafora, psixik fazolar va ularning o‘zaro ta‘sirini tashkil etish masalalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, nazariy asoslar va nazariy asoslar sohasini kengaytirish va amalga oshirilishi kerak. Ba‘zi mualliflarning fikricha, bu faqat kognitiv tilshunoslikning nevrologiya fanlari bilan yaqinlashishi, ya‘ni miyaning asab to‘qimasini eksperimental o‘rganish usullari bilan kognitiv lingvistika sohasiga kuchli kirib borishi tufayli sodir bo‘lishi kerak. Ammo xuddi shu asosda kognitiv tilshunoslikning madaniyatshunoslik, tarix va, albatta, semiotika bilan aloqasini mustahkamlash haqida fikr yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda turli xil nutqlarning bir nechta juda mashhur ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan biri fransuz-shveysariyalik tilshunos va madaniyatshunos P.Serioning ishi bo'lib, uni S.Stepanov diskurs tahliliga misol sifatida keltirgan. Brejnevning ma'ruza matnlarini tahlil qilganda, matnda nominallashtirish va kompozitsiya katta hajmda berilganligini qayd etadi. Ma'ruzachilar ko'pincha "manba rag'batlantirish bo'lishi kerak", "vazifa yangi texnologiyani joriy etish bo'lishi kerak", "butun sovet xalqining umumiy maqsadi ixtisoslashuvni chuqurlashtirish" va hokazo kabi shakllardan foydalanadilar, ya'ni fe'lning shaxs shakllari bilan -aniye, -yeniye, -atsiya hosilalari bilan matnda muhokama qilinayotgan narsaning predmeti, sub'ekti yo'qolishiga olib keladi." Mavzuni yo'q qilgandan so'ng, uni allaqachon sof mafkuraviy nomdagi mavjudot manipulyatsiyalaridan voz kechiladi"[7].

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: agent bilan bir qatorda mualliflik ham yo'qoladi, uning aytgani uchun javobgarlik yo'qoladi, "maqsad va vazifalar" aniq, lekin ularni kim va qanday bajarishi aniq emas va barcha jarayonlar shaxssiz ko'rinishga ega bo'ladi. Inshoga kelsak, u quyidagicha taqdim etiladi: ma'ruzalarda uning yordami bilan doimiy ravishda umumlashtirishlar qilinadi: "partiya va xalq", "Komsomolchilar va barcha sovet yoshlari", "Kommunistlar va barcha sovet xalqi", ya'ni ma'ruzachi barcha komsomolchilarni istisnosiz barcha sovet yoshlari bilan, butun xalqni esa partiya bilan bog'laydi. Natijada, juda ko'p tushunchalar, go'yo bir-biri bilan sinonimga aylanadi, garchi bu nutqdan tashqarida ular sinonim bo'lmasa ham. P.Serio bu yerda odamlarning alohida mentaliteti va alohida mafkura ifodalagan, degan xulosaga kelinadi va bu diskurs hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff.R. Language in Context 1972, in Language 48(4), p. 907-927.
2. Современная американская лингвистика: фундаментальные направления М., 2002, с. 307
3. Цурикова Л.В. Проблема естественности дискурса в межкультурной коммуникации. - Воронеж, 2002, с. 9
4. Цурикова Л.В.Проблема естественности дискурса в межкультурной коммуникации. - Воронеж, 2002, с.10.
5. Langaker R W. Foundations of cognitive grammar. -Stanford, 1987. - Vol. 1. Theoretic prerequisites

6. ChomskyN. Language and mind. -New York, 1972.

7. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности// Язык и наука конца XX века. М., 1995, с. 40

TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Xasanbayev Xabibullo Xakimbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Qo'ysinova Fazilat Oripovna

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Innovatsiya va ilm fanni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

Ta'limda yuqori sifatga erishishning zamonaviy usullaridan biri ta'lim berish va uni boshqaruvini avtomatlashtirilgan elektron tizimga o'tkazish, ya'ni ta'lim menejmentining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish hisoblanadi.

Hozirga vaqtda rivojlangan mamlakatlar tajribisidan ma'lumki, sifatli ta'lim tizimiga erishishining o'ziga xos usullaridan biri, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim menejmentini yo'lga qo'yish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi.

Shu jihatdan biz ushbu maqolada biz oliy ta'lim muassasalarining ta'lim - tarbiya jarayonini raqamlashtirishning xorij tajribasi va ularning texnologik hususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Insoniyatning XX asrdagi eng katta kashfiyotlaridan biri axborot texnologiyalarini jamiyatning turli sohalariga faol tarzda tadbiq qilishidan iborat bo'lib, ayniqsa axborot texnologiyalarining ta'lim va tarbiya jarayonlariga qator rivojlangan mamlakatlar tomonidan jadal ravishda tadbiq etilishi muzkur sohada katta o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari bundan 60 yil oldin birinchilardan bo'lib ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslarini ishlab chiqishni va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilishni boshladi. Shu sababli, zamonaviy

ta'lim sohasidagi yangiliklarining aksariyati (onlayn ta'lim, ochiq ta'lim resurslari, ochiq kurslar, ommaviy ochiq onlayn kurslar va boshqalar) AQShda yaratilgani bejiz emas. L.Yuan va S.Pauyell fikricha, ilg'or mamlakatlarda oliy ta'limni raqamlashtirish jarayonlari onlayn ta'lim va ochiq ta'lim yo'nalishlarida rivojlangan [1].

Onlayn ta'lim - bu masofaviy ta'limning bir shakli bo'lib, u mutlaqo yangi ta'lim shakli sifatida qaralmaydi, lekin masofaviy ta'limning vorisi sifatida e'tirof etiladi [2].

1982 yilda Xalqaro sirtqi ta'lim kengashi ta'lim tizimida yangi texnologiyalarning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligini hamda ta'limda aloqa kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishini aks ettirish uchun o'z nomini "Correspondence education" dan "Distance education" gacha o'zgartirishga erishdi.

Babson Survey Research Group tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "masofaviy ta'lim - bu bir yoki bir nechta texnologiyadan foydalangan holda o'qituvchining o'quvchilardan alohida bo'lgan holdagi o'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida muntazam yoki asinxron tarzda o'zaro aloqani saqlagan holdagi ta'lim"dir [3].

Bugungi kunda masofaviy ta'lim: Internet, audio-video konferensiyalar, simsiz aloqa qurilmalari orqali bir tomonlama va ikki tomonlama uzatish, simli(kabelli) aloqa vositalari, kompyuter tarmoqlari, ochiq radio uzatmalar, sun'iy yo'ldosh va x.k. texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilmoqda.

Ochiq ta'lim (OT) - bu tashkiliy, pedagogik va axborot texnologiyalari tizimi bo'lib, bunda arxitektura va tizimli yechimlarni ixtiyoriy ta'lim jarayoniga moslashtirish va yanada rivojlantirishni ta'minlash uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ma'lumot almashish interfeyslari, formatlari va protokollari ochiq standartlar qo'rinishda taqdim etiladi.

Ta'lim tizimiga ochiq tizim sifatlarini berish, uning xususiyatlarini tubdan o'zgartirishni, ta'limni rejalashtirishda "butun umr uchun ta'lim" tamoyilidan "hayot davomida ta'lim" tamoyiliga o'tishda joy, vaqt va tezlikni tanlashda erkinlikka olib

keladi. Bu esa o‘z o‘rnida “inson bilimga” harakatidan “bilim insonga yetkazish” harakatiga o‘tishni bildiradi.

Bugungi kunda Amerika ta’lim tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tadbiq etilishi ta’lim sohasini barcha qirralarini qamrab olishi bilan ajralib turadi. Eng yangi texnik vositalar va texnologiyalar bilan jihozlangan o‘quv auditoriyalarida o‘quv mashg‘ulotlari, shuningdek, masofadan o‘qitishning milliy markazlari yaratilmoqda va x.q.. An’anaviy ta’lim muassasalaridan farqli o‘laroq, raqamli ta’lim muassasalari “katta ma’lumotlar bazasi” asosida ishlaydi. Bunday “ma’lumotlar bazasi” o‘zida ta’limiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va ma’muriy faoliyatni qamrab oluvchi ma’lumotlar bilan ishlashni avtomatlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari yagona oyna tamoyilida ishlaydigan elektron xizmatlar, boshqa tashkilotlar va mamlakatlarning mutaxassislari bilan hamkorlik qilish imkonini beruvchi raqamli resurslarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Avtomatlashtirilgan ta’lim tizimi bilimlarni nafaqat onlayn shaklda to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatishni (onlayn mashg‘ulotlar), balki ularni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilishni ham ta’minlaydi. Masalan, talabani baholarini va qaysi fanlarga qiziqqanligi haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali talabani ta’lim olish faoliyati umumiy ko‘rinishi shakllanadi [4].

Axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim tizimiga jadallik bilan kirib kelishini ko‘plab Yevropa mamlakatlarda xam ko‘zatishimiz mumkin. Yevropa ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga kirib kelishi an’anaviy ta’limda katta o‘zgarishlarni amalga oshirishni ta’qozo etadi. Bunday o‘zgarishlar avvalambor yangi texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday o‘zgarishlarni eng avvalo xususiy ta’lim muassasalari jadalik bilan amalga oshirilganligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri xususiy ta’lim muassasalari o‘z mablag‘lariga egaligi hamda ushbu mablag‘larni yangi texnika va texnologiyalarni sotib olishga hamda tezlik bilan ularni ta’lim jarayoniga tadbiq qilishga byurokratik to‘siqlarni yo‘qligi bilan ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga davlat ta’lim

muassasalarida aksincha bunday katta mablag‘ni davlat byudjetidan olishga ko‘plab to‘siqlar mavjudligidadir.

Ta’kidlash joizki, oxirgi yillarda Yevropadagi davlat ta’lim muassasalarida ham an’anaviy ta’lim texnologiyalarini raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilish bo’yicha ishlar jaddalashib ketgan. Bu esa, ta’lim sifatini raqamli texnologiyalar yordamida ko‘tarish va shu bilan ko‘plab talabalarni o‘qishga chorlashga imkoniyat yaratadi. Chunki, zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim sub’ektlariga ko‘plab qo‘llayliklar yaratadi va ta’lim sifatini oshirishga imkon beruvchi yangi vositalarni taqdim etadi. Bunday vositalar eng avvalo talabalarga sharoitlariga qarab o‘zlari uchun qulay vaqtda ko‘proq bilim olishiga va yaxshiroq qaror qabul qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, olingan saboqlar va bilimlar bilan bo‘lishish imkoniyatini beradi. Bularga misol sifatida aralash o‘qitishning (blended learning) va ochiq onlayn kurslarining (MOOC - Massive online open course) rivojlanishini keltirishimiz mumkin. Ochiq onlayn kurslarning soni so‘nggi yillarda hisobotlarga ko‘ra, har yili ikki barobarga oshib borayotganini ta’qidlashimiz mumkin [5].

Raqamli texnologiyalarni ta’limda qo‘llashning qo‘shimcha yo‘nalishlari - bu raqamli kutubxonalar va raqamli universitet kampuslarini rivojlantirish hisoblanadi. Ular allaqachon Yevropaning ko‘plab universitetlari tomonidan amaliyotga joriy qilingan. Raqamli kutubxona talaba yoki pedagogga vaqtdan qat’i nazar, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilmiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda hozirgi vaqtda ko‘plab zamonaviy ta’lim muassasalarida an’anaviy va raqamli kutubxonalarning o‘zaro integratsiyasini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim - tarbiya jarayonlarini raqamlashtirishning xorij tajribasi asosida respublikamizdagi mavjud harbiylashtirilgan yoki harbiy ta’lim muassasalari uchun “Ta’lim va tarbiya jarayonlarini avtomatlashtirilgan axborot tizimi”ni yaratish mazkur sohada ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorlini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuan L., Powell S. MOOCs and disruptive innovation: Implications for higher education // eLearning Papers, In-depth. 2013.Vol. 33. № 2. P. 1–7.
2. Кееган Д. Масофавий таълим асослари. Роутледге, 2013й.
3. Seaman J. E., Allen I. E. Grade Increase: Tracking Distance Education in the United States. Babson Survey Research Group, 2018, p. 15.
4. <http://libinform.ru/read/articles/TCifrovoj-universitet-novoe-obrazovanie-dlya-novoj>.
5. <https://www.spbstu.ru/upload/inter/higher-education-europe-2017.pdf>.

THE EFFICIENCY OF THE CREDIT MODULAR SYSTEM IN HIGHER EDUCATION

Muradkasimova Kamola Shuxratovna

Uzbekistan State University of World Languages, DSc Researcher
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

kmuradkasimova@yahoo.com

Eshimbetova Nadira

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
Master Student

The integration process in education began for the first time in Europe. In 1989, thousands of European students had the opportunity to study abroad under the European Community Action Scheme for Mobility of University students (TEMPUS) and other programs. The ERASMUS student exchange scheme between the universities of the European Union initially covered 145 universities. One of the achievements of the ERASMUS program is the creation, testing and implementation of the European Credit Transfer System (ESTS), a system of mutual recognition of learning outcomes in European universities. The credit system in foreign and Russian RoR education in Uzbekistan is based on the design of an individual strategy for each student to achieve professionalism in the process of continuing education. The role of pedagogical universities in the implementation of the credit system in the education

system of Uzbekistan on the basis of the Bologna process the need to develop alternative models of education based on the content of its specific features.

In order to identify priority areas of systemic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, raising the process of training independently thinking highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities to a new level, modernization of higher education, development of social sphere and sectors of the economy based on advanced educational technologies, the decree of President Sh. M. Mirziyoyev “On approval of the Concept of Higher Educational System Development” dated October 8, 2019 No. PD-5847 was adopted. Initially, according to the Concept of development of higher education credit-module system should be introduced in 16% of higher educational institutions in 2023, in 57% - in 2025 and 85% — in 2030.

Credit-module system of the educational process is a model of educational process organization, which is based on a combination of modular learning technologies and credits or credit educational units. Organization and implementation of the learning process - it is a multifaceted and complex system of action and interaction. Attention in the credit module system is focused on its two characteristics:

- on student’s independent work;

-on conducting a credit-module system of organization of educational process and rating system of evaluation of students’ learning achievements.

Many believe that the educational system in Uzbekistan was formed in conditions of information deficit and limited access to information. Therefore, the activity of a teacher in higher information deficit and limited access to information. Therefore, the activity of a above all, to informational functions. The teacher played the role the most important source of information. Since the student is an object of the learning process and simultaneously an object of perception and assimilation of information, the planning of the educational process was done in such a way that the bulk of the work fell on classroom instruction.

The credit-module system, as an integral attribute of the Bologna Declaration, is given two main functions:

1. Facilitating student and faculty mobility and facilitating transitions from one university to another.

2. A clear definition of the amount of work carried out by a student, taking into account all types of academic and research activities. The amount of credits determines what a student who studies in a particular program is capable of. During pedagogical experiment which conducted by leading universities in Uzbekistan the volume of ECTS credits was established — 36 academic hours, and annual academic load of a student- 60 ECTS credits. This is based on the fact that an academic year lasts approximately 40 weeks on average. Number of ECTS credits per academic discipline is determined by dividing total amount of hours planned for study of discipline by credit price (with rounding up to 0.5 credits). For example, if 108 hours are allocated for study of the discipline, it corresponds to three credits. In this case, the discipline is formed of three modules. It is most convenient to determine the specific weight of each discipline in the total load by the number of class hours and proportionally distribute the 30 credits earned per semester among the disciplines studied in a given semester. It is recommended to recalculate the study load into credits by mathematically dividing the total(classroom and independent) study load in a semester by a factor of 36 (36 hours of total workload). A bachelor's degree must earn at least 180 credits (three years according to the norm of 60 credits) or at least 240 credits (four years) during his/her studies; a master's degree must earn a total of at least 300 credits. Hence the correlation between the length of a master's degree and the length of a bachelor's degree.

In the system of higher education, together with professors and teachers in a credit-modular system, students create favorable conditions for free communication between students and teachers, that is, students can freely express their opinions without fear of making mistakes. achieve their assertions, allow them to correct their mistakes, teach them to think independently, and also ensure that such mistakes are not

repeated, create a basis for free discussion of each topic, share student achievements, help solve problems, this makes teachers and professors and also in a place with them students are reliable tailors.

Thus, from the comments on the pedagogical cooperation of teachers and students in the credit-modular system of higher education, the following conclusions can be drawn:

1) the use of problem-based teaching, independent work, didactic games and interactive methods of new pedagogical technologies in the classroom is an important factor in the correct establishment of relations between the student and the teacher;

2) when acquiring knowledge related to science, the fact that students discuss and draw conclusions on their own, without directly taking the teacher's opinion, has a positive effect on teaching independent thinking;

3) in the online Moodle system, the teacher must enter all the information related to the subject at the required level;

4) the respectful relationship of the teacher to the students ensures the effectiveness of cooperation and at the same time, the students will treat the teacher with respect and this helps, makes it easier for each student to understand science when solving problems.

REFERENCES

1. *Decree of President Sh. M. Mirziyoyev "On approval of the Concept of Higher Educational System Development" dated October 8, 2019 No. PD-5847.*
2. *Developing the Credit-Based Modular Curriculum in Higher Education: Challenge, Choice and Change.* London: Routledge. Dodds, T. & Katz, R.N. (2009).
3. Junaydulloyevich, A. A., Furqatovna, O. N., & Baxtiyorovich, A. B. (2021, March). Training highly qualified staff in development of Uzbekistan. InE-Conference Globe(pp. 288-292)
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/features-of-the-credit-and-modular-system-in-higher-education/viewer>

METAFORA KONSEPTUAL INTEGRASIYA HOSILASI SIFATIDA

Yuldashev Akmal Gulamjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zDJTU

akmal1909@mail.ru

J.Fokone va M.Ternerning mazkur nazariyasi ana'naviy *kirish maydonlar* juftligini ikki qo'shimcha maydon bilan to'ldiradi: fon bilimdan iborat bo'lgan va kirish maydonlari uchun umumiy hisoblangan *umumiy maydon (genetic domain)* va integratsiyalashuvning konseptual mahsulidan iborat hosila maydon.

J.Fokonening fikricha, mental maydonlar obyektiv voqelikni aks ettirishini emas, balki inson u yoki bu narsalar to'g'risida qanday o'ylab, qanday gapirishini ko'rsatishi lozim [1]. Anglashiladiki, mental maydonlar tabiatiga ko'ra kognitiv bo'lib, inson ongidan tashqarida ontologik maqomga ega emas. Mazkur nazariyada markaziy g'oyani *konseptual integratsiyalashuv tarmog'i* tushunchasi tashkil qiladi. U boshlang'ich o'rindosh mental maydon (Input Space 1, Input Space 2), umumiy maydon (generic space), integratsiyalashgan yoki «gibrid» maydon (*blending*) va ular o'rtasidagi bog'lanishlardan iborat. Maqolada mazkur nazariyaning *blending* qismini metaforaning integratsiyalashuvi tarzida talqin qilinadi.

Konseptual metaforaning klassik nazariyasi va konseptual integratsiya nazariyasi solishtirilgan holda V.Koller quyidagi farqlarni ko'rsatib o'tadi. Konseptual metafora til birliklarining proyeksiya jarayoni ikki manba maydon (source domain) va maqsad maydon (target domain) orqali ochib berilishini, konseptual integratsiya nazariyasi esa to'rt va undan ortiq Genetic space, Input 1, Input 2 va Blending dan tashkil topishini ta'kidlaydi [2, 34-35].


Ichida ikkita (manba va maqsad) o'zaro ta'sir qiladigan konseptual metaforaning modelidan farqli o'laroq KINdagi metafora toifa (rod) maydon (generic space) doirasida proyeksiyalanib, birinchi uchta maydonlar ba'zi jihatlarining integratsiyasi asosida yangi mental – aralash (blended space) – maydonning shakllanishiga olib keladigan mental olamlarning ikki yoki undan ko'proq unsurlardan iborat bo'lgan

(source-input space 1 and target-input space 2) ko'p maydonli (ya'ni, uz ichiga to'rt maydoni olgan) model yoki tuzilishdir (many-space model) [3].

Olimlar metaforaning ikki turini ajratishadi: birlamchi (primary) va murakkab (complex), va ularning o'zlashtirilishi muhim farqlarni ko'rsatadi. Birlamchi metaforalar erta bolalikda o'zlashtiriladi: "We acquire a large system of primary metaphors automatically and unconsciously <...> from our earliest years. We have no choice in this. Because of the way neural connections are formed during the period of conflation, we all naturally think using hundreds of primary metaphors. Murakkab metaforalar konseptual integratsiya jarayonlarida birlamchi metaforalardan shakllanadi: "Complex metaphor, on the other hand, is formed by conceptual blending" [4, 47].

Ko'p tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kognitiv semantika doirasida ishlab chiqilgan KIT 1990 - yillarning o'rtasida inson tomonidan axborotni integratsiyalash va natijaviy reprezentatsiyalarining ham shaklini, ham mazmunini xisobga olishga imkoniyat beradigan qiymatlarni modellashtirish jarayonlarini tadqiq qilish uchun to'la qimmatli nazariy asos bo'lgan [2, 29. 5, 2].

Quyida ko'chma ma'noli qo'shma so'zlarning kognitiv tahlili konseptual integratsiya nazariyasi orqali amalga oshiriladi. Bunda qo'shma so'zning ikki komponenti konsept sifatida talqin qilinadi. Birinchi umumiy maydondan (genetic space) ikki konsept uchun universal bo'lgan ma'no o'rin oladi. Input 1 va Input 2 hamkor mental maydonlar tarzida talqin qilinadi. Ularning hamkorligi shundaki ko'chma ma'noli qo'shma so'zning hosil bo'lishida aynan ushbu ikki maydondan o'rin olgan assotsiativ ma'nolarning integratsiyalashuvi hisoblanadi. Va so'nggi blending maydonda (blending space) assotsiativ ma'nolarning integratsiyalashuvi natijasida hosil bo'lgan qo'shma so'zning ko'chma ma'nosi o'rin oladi.



Keltirilgan chizma asosida ingliz tilidagi *peacock* – (*pea – no ‘hot, cock – xo ‘roz*) a large bird which has long tail feathers that can be spread out showing beautiful colours and patterns [LDELC 2006: 124] idiomatik qo‘shma so‘zining hosil bo‘lishida qanday assotsiativ ma’nolarning yetakchilik qilishi va integratsiyasi ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, Generic space da hayvon va inson o‘rtasidagi umumiy bog‘liqlik ko‘rsatilgan bo‘lib, mazkur umumiylik ularning *male* – erkak jinsiga mansubligi hamda *beauty* – the qualities in someone or something that give pleasure to the senses

or lift up the mind or spirit [LDELC 2006: 104] qaraganda zavq beradigan, ko'ngil ko'taradigan kishi yoki holati inobatga olingan. Shubhasiz, ko'rsatib o'tilgan ikki holat ham hayvonga, ham insonga xos holatni belgilaydi hamda umumiylik kasb etadi.

Input 1 doirasidan o'rin *adult* – yoshi kattaligi inobatga olingan. Buning boisi tovusning yoshi ulg'aygandan so'ng chiroyli rag-barang patlari va maftunkor dum patlari o'sib chiqishi va erkak kishi ham aqlan va jismonan yetilgan davridan boshlab, o'zining ust-boshiga qarashni va oro berishni boshlaydilar. Ikkinchi o'zaro o'xshashlik esa *feather* – pat so'zining bill, coat, fur, manure, mop, pelt, scale, trunk, wing [ROGET'S 21st CENTURY THESAURUS in Dictionary Form 2005: 942] assotsiativ ma'nolaridan *coat* – palto ma'nosi, ya'ni tovusning patlari kiyim ma'nosida, Input 2 doirasidagi *cloth* – kiyim leksemasi o'rtasida o'xshashlik aniqlanadi va metaforik integratsiya tarzida ma'no ko'chimiga uchraydi.

Input 1 doirasidagi tovusning quyidagi ramziy ma'nolaridan *peacock* symbolizes medicine include long life, leadership, beauty, sophistication, dignity, psychic vision, love, and pride [<https://worldbirds.com/peacock-symbolism/>] *beauty* – go'zallik ma'nosi yetakchilik qilib, tovus patlarining turli ranglarda tovlanib turishi va jilvalanishi o'zgacha joziba aks ettirishi, boshqa qush turlaridan farqli jihatini belgilaydi. Aynan go'zallik ma'nosi erkak kishining doimo o'ziga oro berishi, chiroyli kiyimlarni kiyib o'zgalar e'tiborini jalb qilishni o'ziga odat qilganini ko'rsatadi. Ikki konsept, ya'ni HAYVON va INSON konseptlarining assotsiativ ma'nolarning metaforik tarzda integratsiyalashuvi natijasida blending hosil bo'ladi, *peacock* – a man who is very proud of his appearance and gives a lot of attention to his clothes and the way he dresses [<https://dictionary.cambridge.org/Peacock>] o'zining tashqi ko'rinishiga, kiyimiga, kiynishiga haddan tashqari e'tibor berib, doimo yaxshi ko'rinishga intiladigan, olifta erkak kishi ko'chma ma'noli qo'shma so'zi yuzaga keladi va bu ma'no salbiy ma'noga ega sanaladi, ya'ni erkak kishiga xos bo'lmagan ishni bajarishidir. Konseptual integratsiya yuzaga kelgan idiomatik qo'shma so'z yasalişida ikki konseptning barcha assotsiativ ma'nolarini emas, balki ular orasidagi aynan qaysi assotsiativ ma'nolar yetakchilik qilganini aniqlashda yaqindan yordam

beradi hamda, murakkab metaforik ma'nolarning kognitiv mexanizmlarini aniqlab beradi. Aynan konseptlarning integratsiyalashuvi natijasida til lug'at tarkibidan o'rin olgan ma'nosi ko'chimga uchragan til birliklari ortida insonning bilim strukturasi yotishini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihati shundaki, INSON konseptining antonimi sifatida HAYVON yoki O'SIMLIK konseptlari keltiriladi *person* [n] human being, body, character, creature, customer... concept: Ant. animal, plant [ROGET'S 21st CENTURY THESAURUS in Dictionary Form 2005: 620] demakki, konseptlarning bir-biriga nisbatan zidlov holati ham inobatga olingan.

Aslida ingliz tilida *tovus* so'zining birinchi komponenti o'zi ko'chma ma'noda yasalgan *peacock* – a large bird, the male of which has very long tail feathers that it can be spread out to show bright colors and pattern shapes like eyes [<https://dictionary.cambridge.org>]. Qo'shma so'z izohidagi ko'z shakliga ega ekanligi birinchi *pea* – an annual, tendril-climbing plant (*Pisum sativum*) of the pea family, with white or pinkish flowers and green seedpods, its small, round, smooth or wrinkled seed, used as a vegetable [<https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/pea>] uning "yashil va dumaloq urug'i" kabi izohlari tovusning dumidagi yashil rangdagi dumaloq doirachalar yashil rangdagi no'xotga o'xshashi metaforik tarzda ma'no ko'chimiga uchragan. Ikkinchi *cock* – a male of any other bird [OALD 2010: 282] komponenti esa o'z ma'nosida, ya'ni qushlarning erkak jinsligi asos qilib olingan. Tadqiqotimizda ingliz tili misollari asosida qo'shma so'zning to'lig'icha ko'chma ma'nosini ikkilamchi interpretatsiya hosilasi sifatida konseptual integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Ko'chma ma'noli qo'shma so'zlarning konseptual integratsiya nazariyasi nuqtai nazaridan konseptual metafora va konseptual metonimiyaning chuqurroq va kengroq tahlili amalga oshiriladi. Konseptual metonimiya va metaforalar ikki maydon doirasida tahlili amalga oshirilishidan farqli o'laroq ushbu kognitiv tahlil kamida 4 va undan ortiq mental makonlarni o'zida mujassam etishi bilan ajralib turadi. Mazkur tahlil orqali konseptual metafora va metonimiyaning kompleks tahlili amalga oshirilishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fauconnier G., Turner M. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 513 p.
2. Koller V. Metaphor Clusters in Business Media Discourse: A Social Cognition Approach. PhD thesis. Vienna: University of Vienna, 2003. 25. P. 34–35
3. Fauconnier G., Turner M. Principles of conceptual integration // Discourse and cognition. 1998. P. 269–283.
4. Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. New York: Basic Books, 1999. – 128 p.
5. Ritchie L.D. Metaphor. Key Topics in Semantics and Pragmatics // Cambridge University Press. 2013. № 1 – 242 p.
6. Longman Dictionary of English Language and Culture. New edition. – London: Pearson Longman, 2006. – 1620 p.
7. Oxford Advanced Learner`s Dictionary. Eighth edition. – Uk / India. Oxford University Press, 2010. – 1796 p.
8. ROGET`S 21st CENTURY THESAURUS, 3rd EDITION. – New York. A Delta Book, 2005. – 962 p.

THE PHONETICS LABORATORY AS A HUB FOR TEACHING AND RESEARCH

Ergasheva Guli Ismoil kizi
Professor of UzSWLU, DSc
ergashevaguli327@gmail.com

Imonberdiyeva Malikabonu Alisher qizi
The student of Uzbekistan state world languages university,
English Philology faculty
imonberdievam@gmail.com

1. The Importance of phonetics laboratory in learning and teaching foreign languages.

Today, the interest in learning a foreign language is increasing day by day, but due to the fact that the attention to teaching the pronunciation of a foreign language is

relatively weak compared to the teaching of other skills of the language, the shortcomings and mistakes in the pronunciation of a foreign language can be observed in almost all language learners. Speaking and listening skills are important components of language learning. Language programs with a communicative purpose should focus on the quality of speaking tasks based on authentic audio materials and audio-visual equipment. From the point of view of the content and authenticity of speaking activity, language learners, when they are provided with pedagogical support and listen to real, original conversations (native speaker's speech), their interest in learning a foreign language increases and their skills develop [1]. A phonetic laboratory-study room is a room with high-quality sound copying systems and sound-proof experimental booths. The booths can be used to record and play back sound directly to disc, as well as for other experiments. In the laboratory there will be various sound recording equipment, loudspeakers and dynamic microphones. Also, the phonetic laboratory will include PCs, ordinary computers, which students can use both for teaching and for speech analysis. In the laboratory, classes are organized for students to complete practical phonetic assignments. Students also use the laboratory to complete individual assignments and projects [3:9]. Spectrograms and acoustic spectra can be made in the laboratory to test hypotheses and conduct experiments. In phonetic classes, students regularly conduct exercises on the sound system of other languages. In particular, laboratories are important for studying the features of diphthongs and monophthongs of vowels in English and other languages. Also, students analyze several languages acoustically. The language laboratory has digital audio recording equipment that can be used to record sessions, as well as students' own pronunciation and speech. In this case, recording devices can also use microphones that ensure high volume and constant high quality. Spectrograms and acoustic spectra can be made in the laboratory to test hypotheses and conduct experiments. In phonetic classes, students regularly conduct exercises on the sound system of other languages. In particular, laboratories are important for studying the features of diphthongs and monophthongs of vowels in English and other languages. Also, students analyze several languages acoustically.

The language laboratory has digital audio recording equipment that can be used to record sessions, as well as students' own pronunciation and speech. In this case, recording devices can also use microphones that ensure high volume and constant high quality [3]. In addition, the laboratory will have polaroid cameras for static palatography. Cameras are working with mirrors, they allow to take pictures through. It can be scientific or related to scientific achievements, experiments, with the necessary apparatus and equipment for conducting practical training. Teachers can prepare assignments from short academic assignments, radio programs, original conversations, audio books, songs, and short stories for classes in the language laboratory.

There should also be audio-visual equipment in the teaching process. Specific language programs in speaking wattage skills are powered by tape recorder, sound problem, personal information and M. McKerzie and Carter have created many facilities for, speakers or student conversations have been widely listened to in language classrooms. In addition to audio tapes, audio-language labs are also widely used to teach students about the rules of speech. and help to develop more in the science of speaking. Practical help related to the implementation of the language laboratory language teachers develop new technologies for linguistics.

Baygate (2001) says that: with the formation of tape recorders, tape recorders and language labs in the 1950s, they were widely used mainly to teach students pronunciation, grammar and translation practices. It became popular in teaching English, but at the same time, some teachers criticized the language laboratory. There are two main reasons for this: 1) the teachers working in the laboratory did not know how to use the laboratory equipment perfectly; 2) Other teachers did not take into account that the laboratory plays an important role in the development of students' speaking skills; is in the Philological teachers can use the laboratory when the student has problems with pronunciation skills, but this does not mean that the laboratory is necessary to develop only pronunciation, but rather the laboratory is necessary for the development of all language skills [2].

A language lab is a teaching tool that requires students to practice assignments based on their needs. Before using a language laboratory, language teachers should consider other methods of supporting materials other than radios, tape recorders, DVDs or TV. The language laboratory should not be considered as a teacher or teaching method. The effectiveness of the laboratory directly depends on the skills and experience of the teacher. A language laboratory can be compared to a computer. These are two devices whose qualities depend not only on their hardware but also on their software. Advanced computers need advanced software. To make the most of your computer, you need up-to-date software to use all of its capabilities. If old materials are used in the laboratory, the effectiveness of the laboratory will be limited. Depending on the laboratory and its use, it will only be effective. Although electronic equipment has improved several times, software and educational materials must also meet the requirements. It is necessary for teachers to develop new methods, realizing the importance of always teaching in the laboratory.

The laboratory is very important in teaching foreign languages and effectively develops the correct pronunciation, speaking and listening skills of foreign language learners. Underwood said, "The laboratory is a constant assistant to the teacher, which allows the teacher to be more creative, reveals the mechanical aspects of the language. Many teachers consider the laboratory to be a substitute for teaching. because the laboratory is considered as the center of language teaching, the teacher helps and adapts to the work of the laboratory. Language labs should never be seen as a substitute for a teacher, on the contrary, labs require teachers who have thorough knowledge, are well prepared for lessons, and are always teaching using new methods. Labs are effective when they are used appropriately. Language laboratory classes should be considered as a useful complement to language learning, as creative and special tasks have been developed for its use. In other words, new topics and communication classes can be conducted during the regular class period; then specific skills such as pronunciation and listening should be reinforced in the laboratory, especially with recorded materials designed for the laboratory. We can include pronunciation exercises, songs, reading

comprehension tests, interesting conversations, lecture-based quizzes in this type of special laboratory training.

2. The Phonetics laboratories around the world

Almost every top ranking university has its own phonetics laboratory since the phoneticians and linguists have understood the importance of it. In recent years, researchers' interest in the linguistic aspects of human speech has allowed them to strengthen the empirical basis of their research work using specific methods in areas such as phonetics, sociolinguistics, psycholinguistics, based on traditional research. This integrated and dynamic approach has led to effective collaboration between research areas. Much of modern research is done in phonetic laboratories using integrated methods. Today, phonetic laboratories operate in many developed countries around the world.

There is given information of some universities' laboratories, their history, what work have been done in these hubs.

2.1 Laboratory of Experimental Phonetics L. V. Shcherby – Institute of Philological Research.

Laboratory of Experimental Phonetics named after L.V. Shcherba is currently a member of the Institute of Philological Research of St. Petersburg State University, established on the basis of the decision of the Academic Council of the Educational and Scientific Center for Philology and Arts No. 3 dated March 28, 2002. Over the years of the Laboratory's existence, hundreds of Ph.D. and dozens of doctoral dissertations have been completed and defended, devoted both to the analysis of the sound system of specific languages, and to general linguistic problems of the correlation of systemic and proper phonetic characteristics in human speech activity. The continuity of the existing form of scientific activity is ensured by the fact that the replenishment of the research team occurs due to the training of capable and promising students who participate in research projects while still a student, and then in graduate school.

2.2 Harvard University's Phonetics Lab [5].

Harvard University's Phonetics Lab is equipped with the Kay Computer Speech Lab (CSL), which is used for textbook analysis and speech analysis in courses. Using CSL, it is possible to create pitch tracks, spectrograms, and spectra to test hypotheses and experiment. Students try to understand the monophthong and diphthong qualities of vowel sounds through special equipment. They analyze the acoustic aspects of the languages they are learning.

The department has a portable digital audio for data collection, which is used through a noise-reducing microphone. There is also a Polaroid Macro 5 camera that deals with palatography and is specifically used by law enforcement and in the preparation of other legal and medical documents. The windows in the camera show the articulatory state of the tongue in the palate. Students use this camera to study similar sliders in Mandarin Chinese and other languages, as well as some phonemes in Swedish.

The phonetics lab has a variety of computer resources to help teach phonetics. A database of world language sounds, as well as computer files from Ladefoged's Phonetics Course, will also serve all students. There are also several CD-ROMs with audio data showing phonetic differences and allophones.

2.3 Phonetics Laboratory of the Department of Linguistics and Translation of MSLU

[6]. Phonetics Laboratory of the Department of Linguistics and Translation of MSLU was established in 1985. The phonetics laboratory serves the teaching and research needs for undergraduate and graduate (master, candidate of philological sciences and doctoral). The main research areas of the laboratory include phonetics and typology of sounds, sound changes in Russian and phonetic features in the acquisition of a second language.

The phonetic laboratory focuses on the following scientific problems based on the phonetic competence specified in the qualification requirements for graduates of philology in the teaching of foreign languages:

- to be able to clearly pronounce all the sounds of a foreign language, to put words and accents correctly, to distinguish intonation patterns in communicative situations;

- to practice the use of language sounds in speech, along with the development of speaking skills; correct use of rhythm and intonation in communicative situations in accordance with the communicative types of speech (verb, interrogative, command sentence);
- to work on clear pronunciation of words, phrases; use of rhythm and intonation;
- divide the sentence into meaningful parts; distinguish the main variants of a foreign language;
- be able to use accents and intonation correctly.

2.4 The Phonetics Laboratory of Stockholm University [4].

The Phonetics Laboratory of Stockholm University is located at the Department of Linguistics. The phonetics laboratory has a lot of special equipment for phonetic experiments: Electromagnetic arthrography (EMA) is an electromagnetic tracking system that records articulatory movements. Electropalatograph: shows the state of the tongue and hard palate during speech. Muvitrak: A two-dimensional electromagnetic system specially designed by Stockholm University engineers to measure articulatory motion.

The high demand and need for a phonetic laboratory can be determined based on the problems and shortcomings identified. This is because the laboratory, which will be put into practice in the future, can serve as a universal tool for all foreign language and Uzbek language learners.

REFERENCES

1. Teaching pronunciation. A reference for teachers of English to speakers of other languages. M.Celee-Murcia, M.Brinton, Janet M.Goodwin. Cambridge University press.1996. –P. 114.
2. Practical phonetics training and the nature of phonetic judgements. P.S.Ashby. Phd.diss. London. 2002.
3. The language laboratory and the electronic classroom. A comparison of their relative contribution to achievement in three languages in the comprehensive high school. Phd.diss. W.F.Smith. Indiana, Purdue. 1969. –PP. 7–20.

4. Phonetic Labs. <https://uwm.edu/linguistics/research-labs/phonetics-lab/>
5. Phonetic Lab <https://linguistics.fas.harvard.edu/pages/phonetics-lab>
6. Phonetic Labs <https://depts.washington.edu/phonlab/>

ELEKTRON PULNING FUNKSIYALARI VA KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

Xolov Nabijon Qaxramonovich

Bosh mutaxassis

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

e-mail: nabijonholov@gmail.com

Ma'lumki, elektron pul – bu faqat elektron shaklda, ya'ni maxsus elektron pullardagi yozuvlar shaklida mavjud bo'lgan barcha uchun umumiy to'lov vositasi bo'lgan pulning analogidir. Shu bilan birga, «naqd pulga raqamli muqobil» bu pul qo'shimcha konvertatsiya qilmasdan ham naqd, ham raqamli formatda bo'lishi mumkinligini anglatadi. Bir qator olimlarning tadqiqotlari natijasida elektron pul – bu pulning yangi, moddiylashtirilmagan shakli deb hisoblanadi, elektron pul oldindan to'lanadigan moliyaviy mahsulot moliyaviy yoki to'lovning yangi turi xizmatlar depozitning o'rnini bosuvchi vosita sifatida qaraladi [1-3].

Elektron pullarning rivojlanishi, o'z navbatida naqd pulsiz to'lovlarga elektron pul tayinlash pozitsiyasining yuzaga kelishi moliya tizimida bir qator ziddiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy lug'atga ko'ra, naqd pulsiz to'lovlar pul muomalasining bir shakli sifatida tushuniladi, unda mablag'larni saqlash va harakati naqd pul ishtirokisiz, pulni bank hisobvarag'iga kiritish va uni to'lovchining hisobvarag'idan oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish ko'zda tutiladi. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishni tartibga solish elektron pulning funksiyalari va konseptual yo'nalishlarini tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xalqaro Nobel mukofotining sohibi M.Fridmen [4] va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan pulga talab nazariyasida ishlab chiqarish jarayonlaridan tashqarida

shakllanadigan omillarga, ya'ni ekzogen omillarga asosiy e'tibor qaratiladi. Ushbu holat quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$(M/P)_d = f(r\hat{a}, r\hat{a}, P, h, Y) \quad (1)$$

bu yerda M/P – real kassa qoldiqlari summasi;

$r\hat{a}$ - obligatsiyalardan kutilayotgan nominal daromad me'yorlari;

$r\hat{a}$ - aksiyalardan kutilayotgan o'zgarishi;

P - baholarning kutilayotgan o'zgarishi;

h - inson kapitaliga qilingan investitsiyalardan kutilayotgan natijalar;

Y - real daromad.

Haqiqatan ham ta'kidlab o'tish joizki, M.Fridmen tomonidan yaratilgan "pulga bo'lgan talabning barqaror funksiyasi" konsepsiyasiga ko'ra [4], pulga bo'lgan talab kassa qoldiqlari va nominal daromadning o'sishiga mos ravishda kamaymaydi, u har bir davriy oraliqda barqaror miqdor sifatida saqlanib qoladi, pul taklifi esa o'zgarib turadi. Chunki, pul taklifidagi o'zgarish investitsiyalar va shaxsiy iste'mol hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy iste'molning hajmi esa, nominal daromadning dinamikasiga mutanosib tarzda o'zgaradi.

Pulning genezisi davrida eng qulay shakllarni va ularning xavfsiz harakatini tanlash, xarajatlarni kamaytirish va pul aylanish tezligini oshirish tendensiyasi kuzatiladi. Pulning rivojlanish tarixi davomida har bir yangi pul shakli mavjud shakl asosida paydo bo'ldi va asta-sekin rivojlanib, uning o'rnini egalladi. Shunday qilib, pulning yangi shakllari mavjud pul shakllari talablariga javob bermasa paydo bo'ladi, ular ishlab chiqarish va almashish jarayonini sekinlashtiradi [5].

Moliyaviy tarmoqda ilmiy va texnologik taraqqiyotning joriy etilishi yozuvlarni qog'oz ommaviy axborot vositalaridan kompyuter xotirasiga (elektron shaklga) o'tkazishga yordam berdi, shuningdek to'lov va hisob-kitob usullarini yanada takomillashtirishga turtki bo'ldi. Natijada, texnologik komponentga asoslangan elektron shakldagi naqd pulsiz pullar va naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishning tubdan yangi texnologiyalari paydo bo'ldi. Naqd pulsiz pullarni aks ettirishning qog'oz usuli va pul o'tkazmalari buyurtmalarini bajarish jarayoni avtomatlashtirilgan

axborotni qayta ishlash bilan to'ldirildi (ba'zi hollarda almashtirildi)—hujjatlar elektron shaklda qayta ishlandi va maxsus xavfsiz aloqa kanallari yordamida bank hisobvaraqlariga to'lovlar amalga oshirildi. Bank hisobvarag'idagi qoldiqlar endi texnik qurilmaning xotirasida saqlanadigan ma'lumotlar bitlari bilan ifodalanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlari yangi hisob-kitob va to'lov vositalarining rivojlanishi va paydo bo'lishiga hissa qo'shishini hisobga olsak, ikkinchisi qog'oz yoki elektron texnologiyalarga asoslangan vosita sifatida tushuniladi, ulardan foydalanish kredit tashkilotining tegishli hisob-varag'ida naqd pulsiz pullarning harakatlanishini boshlaydi.

Axborot texnologiyalari davrida, internet-iqtisodiyot va elektron tijoratning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan, hisob-kitob va to'lov jarayonini tezlashtiradigan va shunga mos ravishda vaqt va xarajatlarni minimallashtiradigan yangi savdo formatiga xizmat qilish uchun yangi hisob-kitob vositasiga ehtiyoj yuzaga keldi, bunday vosita bugungi kunda moliyaviy fanning eng munozarali sohasi bo'lgan elektron pulga aylandi. Biz "elektron pul" tushunchasining mohiyatini pul funksiyalari prizmasi orqali ochib beramiz. Yetakchi iqtisodchilarning fikrlari asosida shuni ta'kidlash lozimki, ko'pincha ilmiy dunyoda pulning beshta funksiyasi tan olinadi:

- qiymat o'lchovi (narxlar ko'lami, hisob pullari);
- muomala vositasi;
- to'plash vositasi (qiymatni saqlash, boylikni saqlash, tejash);
- to'lov vositasi;
- jahon pulining funksiyasi.

Xarajatlarni o'lchash funksiyasi. Elektron pulni pulning yangi shakli deb hisoblaydigan olimlarning ta'kidlashicha, "pulning qiymat o'lchovi" sifatidagi funksiyasi umumiy ekvivalent vazifasini bajaradigan pul "tovar va xizmatlarning almashinuv qiymatini belgilaydi" (tovarlar, xizmatlar narxi), ya'ni tovarlarni sotishda sodir bo'ladi.

Pul qiymat o'lchovi sifatida turli tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning qiymatlarini (ijtimoiy qiymatini) o'lchash va taqqoslash uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga,

tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning qiymati (ijtimoiy qiymati) narx shaklida pul ifodasiga ega.

Elektron pullar tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatini ifoda etishi va valyuta qiymatining belgisi bo'lishi mumkin, agar ularning xavfsizligi uchun xizmat qiladigan qonuniy pullar o'rtasida qat'iy munosabatlar va yaqin munosabatlar mavjud bo'lsa, elektron pul tizimidagi qiymatni aks ettiruvchi narxlar, garchi elektron pulda ifodalangan bo'lsa-da, qonuniy naqd pul bilan o'lchanadi, uning depoziti elektron pul chiqarish uchun asoslidir.

Hozirgi vaqtda elektron pullardan foydalangan holda tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarini aniqlash va belgilash mumkin, ammo faqat ma'lum bir tizim doirasida, tizimdan foydalanmaydigan shaxslar esa elektron pulni qiymat o'lchovi sifatida tan olmaydilar. Shunday qilib, elektron pul umumiy ekvivalent to'lov usuli sifatida harakat qilmaydi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning almashuv qiymatini belgilovchi mustaqil ekvivalentdir.

Aylanma vositalar funksiyasi. Aylanma vosita funksiyasini bajarish, pul tovarlar (ishlar, xizmatlar) almashinuvi jarayoniga vositachilik qiladi. Elektron puldan foydalangan holda sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirishda xaridorning soni kamayadi va sotuvchining soni mos ravishda ko'payadi. Birinchi qarashda, jarayon o'xshash naqd yoki naqd pulsiz mablag'lardan foydalangan holda sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladi. Biroq, farqi shundaki, elektron pullar almashtirilganda, xaridor sotuvchiga elektron pul tizimining operatoriga pul majburiyatlarini bajarish huquqini beradi, shu bilan birga bu operatsiyalar yakunlanmaydi. Odatda tan olingan va davlat kafolati bilan ta'minlangan qonuniy pullardan farqli o'laroq, elektron pulni aylantirish qobiliyati uni iqtisodiy agentlar tomonidan almashinuv vositasi sifatida tan olinishi yoki tan olinmasligi sharti bilan cheklanadi.

Jamg'arish vositasi (qiymatni saqlash) funksiyasi. Jamg'arish vositasi (qiymatni saqlash) funksiyasi barcha asosiy pul funksiyalari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, agar pul ayirboshlash vositasi sifatida qabul qilinsa, u qiymatni saqlash vositasi bo'lishi

kerak [6]. Pul to'lov vositasi sifatida tan olinmasligini rad etishning iloji yo'q, agar ular kelajakda sotib olish qobiliyatini ta'minlay olmasalarda rad qilinmaydi.

Elektron pul, to'lov vositalarining qonuniy vakili sifatida harakat qilmasdan, tashkilotning (tizim operatorining) shaxsiy majburiyati bo'lib, uning ishonchligi davlatga qaraganda ancha past, shuning uchun, elektron pullar elektron pul tizimining operatoridan boshqa shaxslar tomonidan tan olinmasligi mumkin, buning natijasida ushbu shaxslarga narxlarni belgilash, shuningdek hisob-kitoblarni agar tomonlardan biri bunday shaxs bo'lsa amalga oshirish jarayoni mumkin emas. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki tizim operatorining pul majburiyatlarini ifodalovchi elektron pullar kelajakda hisob-kitoblar uchun ishlatilishi mumkin. Elektron pul kelib tushgan paytdan boshlab elektron hisob raqamiga va undan foydalanish mumkin bo'lgan paytdan boshlab mavjud vaqt oralig'ining mavjudligi, ya'ni. pul talab qilish huquqini berish tizim operatorining bank hisobvarag'iga qopqoq sifatida joylashtirilgan elektron pul uchun qonuniy pul qiymati bilan ta'minlanadi. Bu degani faqat "ta'minlangan elektron pullar" M.Fridman tomonidan ochilgan pulning asosiy xususiyatiga ega bo'lib, almashinuvni vaqt va makonda bir-biridan ajratib, sotish va sotib olish aktiga bo'lish qobiliyatiga ega [7].

Zamonaviy rus tadqiqotchisi M.E. Isaev, shuningdek, elektron pul yig'ish va tejashning cheklangan funksiyalarini bajaradi, chunki u sezilarli darajada katta xavflar bilan bog'liq va daromad keltira olmaydi (uni depozit sifatida berish va unga foiz olish mumkin emas) [8].

Shunday qilib, elektron pul faqat elektron hisob egasi da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan qonuniy pullar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Bu barcha pul funksiyalarini bajaradigan qonuniy pul, bu "ta'minlangan" elektron pulni qiymatni saqlash va pul to'plash vositasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

To'lov usuli funksiyasi. Tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib berish vaqtini ular uchun to'langan paytdan boshlab o'z vaqtida ajratish mumkin bo'lganda, to'lov usuli funksiyasi joriy etildi. Binobarin, pul to'lov vositasi funksiyasini bajarganda, tovarlar (ishlar, xizmatlar) va pulning yaqinlashib kelayotgan harakati vaqtida buziladi. Pul

to'lov vositasi sifatida nafaqat tovarlar (ishlar, xizmatlar), balki kapital harakatida ham ishtirok etadi. Ular kredit xarakteridagi operatsiyalarni amalga oshirishda yoki o'z ichiga olmaydigan tovar bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) va pul almashinuvi turli vaqt oralig'ida sodir bo'lganligi sababli, ushbu almashinuv jarayoni qarz majburiyatiga vositachilik qiladi, uni to'lash paytida pul to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, pul nafaqat valyuta operatsiyalariga xizmat ko'rsatishda, ayirboshlash vositasi sifatida ham qiymatga ega bo'lishi, balki mustaqil vakil sifatida ham harakat qilishi kerak, to'lov vositasi funksiyasini bajarish uchun ularga qonun bilan berilgan qiymatdir.

Elektron pulning to'lov vositasi funksiyasini bajarish imkoniyatini aniqlash uchun ikkinchisini hisob-kitob vositasi funksiyasiga va qarzni to'lash funksiyasiga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, bugungi kunda elektron pullar to'lov vositasi sifatida cheklangan funksiyaga ega. Ular faqat elektron pulda to'lovni amalga oshirgan xaridor kelajakda sotuvchi oldida hech qanday pul majburiyatlariga ega bo'lmagan holda, ular o'rtasida shartnoma tuzilishi sharti bilan bitimning kontragentlari o'rtasida hisob-kitob vositasi sifatida qaralishi mumkin. Elektron pullar, agar u qonuniy pul shakli sifatida ishlasa, to'lov vositasi funksiyasini to'liq bajarishi mumkin.

Jahon puli funksiyasi. Ma'lumki, pul xalqaro hisob-kitoblarga xizmat ko'rsatishda va kapitalning o'zaro harakatida jahon pullari funksiyasini bajaradi.

Ta'kidlash kerakki, xalqaro moliyaviy operatsiyalar va savdo operatsiyalarida elektron pullardan foydalanish imkoniyati, jarayoni va qoidalari xalqaro munosabatlarda ishtirok etuvchi mamlakatlarning milliy qonunchiligi bilan cheklangan. Shu bilan birga, hozirgi kunda xalqaro maydonda global elektron pullar mavjud emas, ularning aylanishi qobiliyati uni qiymat, almashinuv va to'lov vositasi sifatida tan olish to'g'risida qaror qabul qilishda hisob-kitob ishtirokchilarining irodasiga bog'liq emas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, elektron pullar pul muomalasiga nisbatan davlatning tartibga solish va boshqarish funksiyalaridan chetga chiqishi mumkin

bo‘lgan global, universal o‘zaro ta’sir vositasiga aylanishi ehtimoli doimo mavjud. Elektron o‘zaro hisob-kitoblarni yanada rivojlantirish bo‘yicha bashoratlarning juda optimistik bo‘lishiga qaramasdan, ularning salohiyati hali to‘liq ochib berilmagan. Elektron pullar hayotimizda mustahkam o‘rnashib borayotgan va pulning asosiy turlaridan biriga aylangan bir vaqtda, ular foydalanishning eng qulay shakli sifatida naqd pulga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini tejashga, tranzaksiya vaqtini qisqartirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anishenko, K.L. Elektronnye dengi: ponyatie, vidy i problemy razvitiya / K.L. Анищенко // *Sovremennye tendensii upravleniya i ekonomiki v Rossii i mire: sivilizatsionniy aspekt*. Moskva, 2021. S. 271-277.
2. Aslanyan, A.L. Elektronnye dengi i perspektivi ix razvitiya / A.L. Aslanyan // *Region i mir*. 2019. T. 10. № 7. S. 78-84.
3. Zinisha, O.S. Elektronniye dengi kak alternativnaya forma beznalichnix raschetov i platejey i perspektiviy razvitiya / O.S. Zinisha // *Valyutnoe regulirovanie. Valyutniy kontrol*. 2021. № 1. S. 74-78.
4. M.Fridmen. Kapitalizm i svoboda 1997. – 141 s
5. Garkusha, M.S. Noviye funktsii deneg v virtualnoy ekonomike/ M.S. Garkusha // *Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im A.I. Gersena*. – 2009. – № 119. – C. 96–101.
6. Fisher, S. *Ekonomika*. Per. s angl. / S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzi. – 2-ye izd. – M.: Delo LTD, 1995. – 864 c.
7. Fridman, M. *Yesli bi dengi zagovorili ...* / M. Fridman. Per. s angl. – M.: Delo, 1999. – 160 c. 181
8. Isaev, M.Ye. *Funktsii elektronnix deneg* / M.Ye. Isaev // *Izvestiya vysshix uchebnix zavedeniy. Seriya: Ekonomika, finansi i upravlenie proizvodstvom*. – 2011. – №4. – C. 13–16.

EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH FANINI O‘QITISH METODLARI

Xushvaktova Xusnobod Soliyevna

O‘qituvchi, p.f.d., dosent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: khusnabad.khushvaktova@mail.ru

Ma’lumki ekologiya faniga bo‘lgan e’tibor asosan XXI asrda jiddiy tusga kirdi va Ekologiya fan sifatida Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitila boshlandi hamda o‘quv rejalarida ekologiyaga ma’lum soatlar ajratildi. Shuning natijasida ekologiya darslarini olib borish metodlari ham tezgina shakllandi. Ponomareva O.N. (1999) yil keltirgan ma’lumotga ko‘ra rossiya pedagogika fanida birinchi bo‘lib korrelyasiya metodini I.T.Suravegina qo‘lladi va ekologiyani o‘zlashtirishda ijobiy natijaga erishdi. I.T.Suravegina (1989) o‘quvchi bolalarni maktabda ekologik tayyorlash: hikoyalar, ma’ruzalar, suhbatlar, sinfda ekologik o‘yinlarni o‘tkazish yo‘li bilan erishdi.

Cheredov I.M. (1988) ham I.T. Suravegina metodiga qo‘shilgan holda ekologiya o‘qitish metodikasida dastlab bu olimaning usullaridan foydalaniladi va o‘z qo‘shimchalarini taklif qiladi. Mustaqil ishlar tayyorlash, kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, yaratish, applikasiyalar, rasm chizish, gerbariy qilish, to‘plash, amaliy ishlarni bajarish, musobaqalar o‘tkazish, tahlil qilish, mukofatlash, tanqidiy munosabatda bo‘lish, misollar keltirish va umum pedagogikaga oid ishlar orqali ekologiyaga mehr o‘yg‘otishni tavsiya qiladi.

Sharikova G.V. (1997) ekologiya fanini o‘rganishda faol metodlar, ya’ni ilmiy yo‘lanishlarni talabalar OTMda o‘qib yurgan vaqtdan boshlashi kerak dala tajribalarini olib borish, kuzatish metodlarni fenologik fazalar, sanash, tirik organizmlarni izlab topish, statistik o‘lchovlar, biometrik o‘lchovlar, qo‘riqxonalar borib o‘simliklar va hayvonlar kuzatishlarni taklif qiladi. D.N.Kavtaradze (1997). Darslarni olib borish metodlariga ekologik ta’limni interaktiv metodlar orqali olib borish natija beradi deb hisoblaydi.

Ekologik tarbiya deganda, ekologik buhronlarni tushunish va faol holda tabiatni saqlash va uni himoya qilish, har bir insonda tabiatni asrash bo'yicha g'oyalar va fikrlarni o'zida shakllantrish tushuniladi.

Bugungi ekologik ta'lim tizimida dolzarb ekologik muammo bu mamlakatda uzluksiz ekologik ta'lim modeliga amal qilish natijasida yagona imkoniyat bu tabiat va jamiyatdagi o'zaro uyg'unlik, birlik imkoniyatlarini shakllantirishdir. Uzluksiz va xavfsiz ekologik ta'lim tizimi orqali jamiyatni shakllantirishga erishish uchun OTMlarda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanini o'qitish metodlarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu kungacha ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fani bo'yicha bugungi zamon talabiga mos keladigan ta'lim tizimi metodlari borasida juda kam o'rganilgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, OTMlarda ekologiya fanidan ta'lim berish metodlarini deyarli o'rganilmagan, olib borilgan ko'pgina ilmiy izlanishlar, biologiya va pedagogika faniga oid ishlar bo'lgan.

Malozyomova I.I. (2017) o'z ma'lumotlarida, ekologik ta'lim metodlarni o'rganishda asosiy vazifa, dars berayotgan o'qituvchining bilimi, mahorati va uning ongida shakllangan ekologik madaniyatning yuksakligiga bog'liq deb yozadi. O'qitish metodi orqali o'qituvchi va o'quvchi harakatlari yordamida ma'lum bir fanni o'rganib oladi, o'qitish metodlari aynan darsni olib borish jarayonida qo'llaniladi va zamonaviy o'qitish vositalari bilan uzviy bog'lik holda olib boriladi. Turli o'qitish metodlaridan foydalanishda bitta maqsad, talaba ongiga bilimni yetkazish va uning bilimini oshirish.

Bugungi kunda ekologiya fanida bir qator o'qitish metodlari mavjud bo'lib, bu metodlarni qo'llash aslida juda murakkab va o'z navbatida oddiy ham bo'lishi mumkin. Chunki ekologiya fani, boshqa fanlardan farqli o'laroq, unda metodlarni tabiat jismlari yoki ularni o'rganishda amalga oshiriladi, bu ob'yektlarni ba'zan qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin, ba'zan esa ularga mutlaqo yaqinlashib, bo'lmaydi.

Aslida umumdidaktiv talablarga ko'ra ekologiyani o'qitishda ijtimoiy tajribaning barcha elementlari o'zlashtiriladi, ayniqsa:-o'rganiladigan ilmiy material to'g'ri kelishi ko'rib chiqiladi va o'quvchining talabi e'tiborga olinadi, bunda o'quvchi bilan o'zaro muloqat va o'qituvchini o'z bilimiga ishonishi, ma'lumotni yetkaza bilishi

va o'zini ko'rsataolishi muhimdir. Ekologiyani o'qitish metodikasi, kimningdir shaxsiy metodikasi bo'lmay, balki barcha fanlarga oid an'anaviy metodikalardan foydalaniladi. O'qitish metodikasi turlari boshqa fanlar bilan o'xshash yoki boshqacha bo'lishi ham mumkin. Taniqli olim I.Ya.Lerner, (1981) o'z ma'lumotlarida ushbu fikrlarni aytib o'tgan.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fani o'rgantish bo'yicha quyidagicha metodlar qabul qilingan:

1. Og'zaki metod- hikoya, ma'ruza, suhbat;
2. Ko'rgazmali metod;
3. Kitob bilan ishlash metodi;
4. Interaktiv metod, bu metodda o'yinlar emas- diskussiya, aniq ekologik holatlarni taxlili qilish ;
5. Dars o'tishning o'yinli- "stolda", kompyuterli, rolli, imitatsiyali yoki ishorali, loyihalash o'yinlari, ishchi o'yinlar;
6. Nazorat qilish metodi: og'zaki, yozma, dasturli bo'ladi;
7. Aqliy hujum.

Ma'ruza. Ma'ruza metodi bilan darslarni olib borish Oliy ta'lim tizimida eng keng tarqalgan usul bo'lib hisoblanadi. Auditoriyada o'tirgan talabaning yoshi ma'ruza usulida o'tish metodikasiga to'g'ri keladi. Bizda gumanitar yo'nalish talablariga 2-bosqichda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanidan darslar o'tiladi. Bungacha talaba birinchi bosqichda o'quv rejasiga mos holda bir qator fanlardan ma'ruzalar tinglagan bo'lib, ma'ruza tinglash va o'zlashtirib olishga ancha moslashgan bo'ladi.

Ma'ruza metodi ma'lum bir mavzu talabaga ilmiy asosda bayon qilib berish bo'lib, o'quv dasturidagi muhim masalalarni, undagi mazmuni, mohiyatini, jarayonlarni va qonuniyatlar asosida yetkazib berishdir. Ekologiya fanidan dars soatlarining kamligi, doimo ma'ruza soatlarining yetishmasligini ko'rsatadi. Ma'ruzada o'tiladigan mavzuning dars strukturasi, aniq reja asosida tuziladi va talaba tomonidan yozib olinadi. Ba'zan talabalarga o'quv darsliklari yetishmaydi, mana shunday holatlarda ham yozib olingan ma'ruzalar talablarning o'tilgan mavzuni yaxshi

o'zlashtirishga imkon beradi. To'g'ri tashkil qilingan va o'tkazilgan ma'ruza, bilim olishning aktiv usullaridan biri bo'lib, o'qituvchi bu jarayonda yuqori darajada fikrlaydi, o'quvchiga o'z bilimini yetkazadi. Ma'ruzalar yangi fan va mavzularni o'rganishga kirishilganda boshlanadi, o'qituvchi o'z fikrini ma'ruza davomida yetkazib, talaba ongida ekologik tushuknchalar paydo qilib, uni ortidan yetaklay olsagina, ma'ruzani mahorat bilan olib bordi deb hisoblash mumkin. Ma'ruzachi talabaning ekologik bilimni, mustahkamlab, takrorlatib, savollarga juda kam joy qoldirishga erishsa u, didiaktik kuchli ma'ruzachi o'qituvchi hisoblanadi.

Hikoya metodi - dialog metod usulida o'qitish bo'lib, seminar darslarida, darsni yakunlash jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan metod bo'ladi. Dars soatlarining kamligi, ekologiya fanida hikoya metodidan kam foydalanish ko'rsatadi deb yozishadi Haydarova H., Bahodirova Z. va Yakubjonova Sh.lar. (2009).

Bu usulda dars o'tish metodidan ekologiya darslarida kamroq foydalaniladi, tabiatdagi ayrim hodisalarni video ko'rsatuvlarda ko'rsatishdan oldin shu voqeyeylikka izoh beriladi. Bu vaqtda hikoya yo'li bilan holat tushuntirib beriladi. Hikoya mavzuni ifodali va izchil ifoda qilishga imkon beradi. Chunki birdaniga tabiiy ofatlarni videodan ko'rsatgandan ko'ra, oldin talabaga tushuncha bergan ma'qul bo'ladi. Masalan katta tayfunlarni ko'rsatishdan oldin albatta ularning kelib chiqish sabablarini tushuntirib o'tish talabaga shu bilimni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi.

V. Suhbat metodi- bu metoddagi o'qituvchi o'tiladigan mavzu bo'yicha savollarni ketma-ketlikda tayyorlab, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'quvchilarga tarqatadi. O'qituvchi savollarni o'quvchiga bergandan so'ng ularning javoblarini eshitadi, ana shu vaqtda javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligini eshitadi. Har bir talaba o'zidagi savolga javob tayyorlaydi, o'zidagi bilimlardan foydalanadi, har bir savol ustida ijodiy fikr yuritadi, bosh qotiradi. O'qituvchi esa talabaning javobi to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirib, kerak joyda uni to'g'rilaydi va suhbat davomida barcha savollarga o'zi javob beradi. Bu metod, ma'lum bir bo'lim o'rganib bo'lgandan so'ng

bilimlarni tekshirish paytida yakunlovchi yoki umulashtiruvchi sifatida ahamiyatga egadir.

Oliy ta'lim muassasi talabasi, o'ziga kerakli ekologik ta'limni o'rganishni bir qancha metodlarni bilish va amalda qo'llash orqali oladi. Talaba faqatgina tabiat haqidagi bilimlarni mustahkamlamasdan, balki biologik xilmaxillikni, tabiatdagi jamoalarni, tabiatda boradigan munosabatlarni saqlab turadigan qonuniyatlarni, tabiatni himoya qilishni zrganshi bilan bir qatorda tabiatni dadil himoya qiluvchi inson vazifasini bajaraboshlaydi. Ushbu metodlarni o'rganish yordamida har bir talaba o'zi qulay deb bilgan metodlarni tanlab olib kelajakda tabiiy fanlarni o'rganishda qo'llaydi, talabada izlanuvchanlik metodi kuchayib, o'zidagi tabiatni himoya qilish borasidagi ijtimoiy faollikni yanada kuchaytirib, bilimini yanada oshirishga imkon bo'ladi. Talaba o'zida bilim va ta'limning birligini yanada kuchaytiradi va bo'lajak o'qituvchining professional tayyorgarligi shu jarayonda yanada oshib boradi. Ekologik ta'lim berishda qaysi metoddan foydalanishga qaramasdan, ta'lim tizimi uzluksiz va doimiy, turlicha bo'lishi hamda talabada ekologik ong shakllanmay turib tabiatda haqiqiy sof ekologik texnologiyalardan foydalanish mumkin emas va haqiqiy ekologik tartib o'rnatib bo'lmaydi. Olib boriladigan darslar jarayonida ekologik o'zaro bog'liklar, tabiatni himoya qilish va tarbiyaviy ahamiyatlarni o'rganishda beriladigan ma'lumotlarni bir biriga bog'lashda eng zamonaviy metodikadan foydalanib o'qitish ishlarini olib borish ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kavtaradze D.N. Na puti k ustoychivomu razvitiyu. – 1997. — №2 (6). – S. 38-45.
2. Lerner I.Ya. Didakticheskiye osnovy metodov obucheniya / I.Ya. Lerner. —M.: Pedagogika, 1981. – 186 s.
3. Malozyomova I.I. Razvitiye napravleniy ekologicheskogo obrazovaniya v sovremennom vuze. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya «Biologicheskoye i ekologicheskoye obrazovaniye v shkole i vuze: teoriya, metodika, praktika». – 2017.S 127-131.

4. Haydarova M., Bahodirova Z., Yakubjonova Sh.lar Ekologiya o‘qitish metodikasi. Toshkent. Iqtisod moliya. – 2009, 217 b.

INGLIZ TILI SO‘ZLASHUV NUTQIDA QO‘LLANILADIGAN SO‘Z YASASH QO‘SHIMCHALARINI ISHLATILISHI

Madraximov Tulibay Abdukarimovich
Ingliz tili 2- fakulteti dekani
tulibaymadraximov@mail.com

So‘zlashuv nutqi leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy xususiyatlaridan tashqari, so‘z yasash borasida ham o‘ziga xos xususiyatga egami yoki yo‘qmi? Tildagi mavjud so‘z yasash vositalari so‘zlashuv nutqida qandaydir jarayonlarni boshdan kechiradimi? Yoki bo‘lmasa u yoki bu so‘z yasash vositalarida ishlatish ko‘lamida faollashuv, passivlashuv, ma’no kengayishi hamda torayishi kabi masalalarning holatini o‘rganib chiqish va yuqorida qo‘yilgan savollarni ilmiy jihatdan talqin qilish va yakuniy to‘g‘ri baho berishni ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, so‘z yasalishi tizimi tilning jamiyat bilan bevosita aloqaga kirishadigan nuqtasi hisoblanadi va tilning hech bir bo‘limi bu darajada o‘zgarishga, ya’ni ko‘payish yoki ozayishga moyil bo‘lmasa kerak. Chunki turli lingvistik va ekstralingvistik sabablarga ko‘ra u yoki bu so‘z yasash vositasi o‘z mahsuldorligini keskin oshiradi yoki keskin kamaytiradi(1). Bu yerda bir qator juda qiziq hodisalarni kuzatamiz. Ular asosan quyidagilardir:

- asrlar davomida kammahsul hisoblanib kelgan u yoki bu so‘z yasash vositasi kutilmaganda juda faollashib ketishi mumkin;
- bu faollik uzoq davom etmasligi mumkin;
- so‘z yasash vositalari o‘rtasida sinonimiya hodisasi kuchayib ketishi oqibatida sinonimik qatorlar yuzaga kelishi mumkin;
- so‘z yasovchi vositalarning bu kabi faollashuvi so‘zlashuv nutqining doimo yangi ifoda vositalarini paydo qilishi, ifodaviylikni va emotsionallikni kuchaytirish an’anasi bilan izohlanadi;

- yangi paydo bo'lgan so'zlarning ma'no ko'lami so'z yasovchi vosita yordamida avvalroq yasalgan so'zlardan o'z ma'no ko'laming kengligi bilan keskin farq qilishi mumkin.(2)

Endi quyidagi ba'zi suffikslar funksional ko'laming va ma'nosining kengayishiga misol tariqasida og'zaki so'zlashuv nutqida yaratilgan yangi so'zlarning ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

-**eer** suffiksi so'zlashuv nutqida yana sermahsul bo'lib qoldi. Masalan: racketeer (reketir); profiteer (foydaning ketidan quvib boshqa narsalarga panja orasidan qaraydigan shaxs); patrioteer, blacketeer (nolegal bozor reketiri); pro-Marketeer, anti-Marketeer (bozor iqtisodiyoti tarafdorlari va bozor iqtisodiyotiga qarshi bo'lgan odamlar); toileteer (hojatxonalar va sanuzellar bo'yicha mutaxassis slesar-santexnik).

-**ster** suffiksi gangster, mobster, roadster, pollster (saylov uchastkasida faoliyat ko'rsatuvchi xodim); schoolster-o'quvchi; jeepster-"Jip"ga o'xshash mashina; hipster (xippilarning eng ilg'or, yo'l boshchi vakili).

-**ee** suffiksi «... gan» ma'nosida. Trainee, returnee, draftee, selectee, addressee, divorcee, retee, standee (tomoshani tik turib tomosha qiladigan shaxs); flunkee-(imtihondan qulagan talaba);

-**ness** suffiksi proudness (pride), beautifulness (beauty), corruptness (corruption), mysteriousness (mystery) va hokazo;

-**burger** qo'shimchasi (hamburger-kabi) oziq-ovqat va yegulik narsalarni bildiruvchi so'zlar yasashda keyingi paytda juda sermahsul qo'shimchaga aylandi. Masalan: cheeseburger-(pishloqli buterbrod); chickenburger-jo'jali buterbrod; beefburger-mol go'shtili buterbrod; lamburger- barra, qo'zi go'shtili sendvich; rabbitburger- quyon go'shtidan tayyorlangan buterbrod; fishburger-baliqli buterbrod; pigburger-cho'chqa go'shtidan tayyorlangan buterbrod; horsemeatburger-qazili buterbrod; turkeyburger- kurka go'shti qo'yilgan buterbrod.

-**fest** suffiksi bayram, festival ma'nosi bilan bog'liqdir. Bu suffiks bilan ham qator so'zlar yasalgan. Masalan: talkfest (mahmadonalar bayrami, maza qilib gaplashsa bo'ladigan joy va marosim.); slugfest (boks o'yini); gossipfest (mish-mishlar makoni va mishmishchilar bayrami); smokefest (chekuvchilar bayrami); walkfest,

gapfest (bekorchilikdan gaplashib o'tirish); sonfest, smilefest, eatfest (ziyofat); bookfest (kitob savdosi).

-cade suffiksi «marosim yoki tomosha» ma'nosida bo'lgan so'zlashuv nutqida juda ko'p yangi so'zlar yasaldi: motorcade, autocade (avtomarosim); musicade (muzikali marosim); aquacade (suvda o'tkaziladigan marosim).

-scape suffiksi keyingi yillarda so'zlashuv nutqida qator yangi so'zlarni yasashda faol ishtirok etdi: seascape, lardscape, cloudscape (bulutlar manzarasi); sandscape (qumliklar manzarasi); waterscape (suv manzarasi); mountainscape (tog' manzarasi); moonscape (oy manzarasi); parkscape (park manzarasi); skyscape (osmon manzarasi); housescape (uy manzarasi); roadscape (yo'l manzarasi); mindscape (tafakkur lahzasi); dreamscape (narkotik moddalar ta'sirida yuzaga kelgan gallyutsinatsiyalar).

-happy yarim suffiksi bilan ham keyingi yillarda qator yangi so'zlar yasaldi: slaphappy (urib ag'darilgan boksyor); bark-happy (poyloqchi it); strite-happy (unvonini oshirish istagida yonayotgan askar); trigger-happy (arzimagan sabab, bahona bilan ham tepki bosishga tayyor turgan hovliqma, o'pka odam); flight-happy (kuni uchish bilan o'tadigan odam); dollar-happy (puldor).

-conscious - ayrim so'zlarga qo'shilib o'zakda ifodalangan narsani yoqtiradigan, jonini beradigan, o'zini biror narsa uchun tomdan tashlashga tayyor turgan odamni bildiruvchi so'zlarni yasaydi. Masalan: social-conscious- jamiyat ishi uchun o'zini qurbon qilishga tayyor turgan shaxs; profit-conscious- faqat foydani o'ylaydigan odam; race-conscious- poyganing ashaddiy tarafdori; swimminig-conscious-suzishni sevadigan odam.

Bu suffikslar va yarim suffikslar hamda ular bilan yasalayotgan yangi so'zlar faqat so'zlashuv nutqidagina ishlatiladi. Ular yozma badiiy adabiyot uslubida, gazeta yoki hujjatlar tilida ham ishlatilmaydi. Bulardagi ifoda kuchining zo'rliigi, emotsionallikning yuqoriligi, ular ongida o'ziga xos yangi obrazlar paydo qilish uchun xizmat qiladi. Buning oqibatida yangi ma'no uchun yangi shakl yasalganda bu so'zning komponentlari o'zlarining dastlabki ma'nolarini saqlab qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Винокур Т.Г. Разговорная речь и стиль // Теория и практика лингвистического описания иноязычной разговорной речи. – Горький: Б.и., 1972. - 189 с.
o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish, ta‘lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish bo‘yicha ulkan islohotlarni amalga oshirmoqdamiz” [1]. Ma‘lumki, blended ta‘lim shaklida bir qator dolzarb omillar yuzasidan o‘qituvchining undagi o‘rni muhimdir va mazkur ta‘lim jarayonida kutilgan natijalarga o‘qituvchining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalana olishi bilan birga talabalarning ushbu amaliyotdagi faol ishtiroki orqaligina erishish mumkin. Umuman olganda, onlayn shaklda til o‘rganishning dastlabki davrlarida uni tatbiq etishning mantiqiy asoslari va motivatsiyasi ko‘proq amaliy tabiatga oid sabablarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda uni amalga oshirishda asosiy motiv sifatida til o‘rganishning pedagogika va nazariyasiga kengroq e‘tibor qaratilmoqda, natijada bu yondashuv odatda “prinsipial yondashuv / usul” deb atalmoqda [2]. Xususan, blended ta‘lim shaklining oliy ta‘lim kontekstida bosqichma-bosqich joriy etilishi til ta‘limi va chet tili ta‘limi pedagogikasining qaytadan ko‘rib chiqilishiga turtki bo‘ldi. Vaholanki, uzluksiz tarzda rivojlanib borayotgan chet tili ta‘limida pedagogika fani va unga oid omillarning ta‘sir doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda.

Birinchiidan, blended ta‘lim va uning tarkibidagi texnologiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliy ta‘lim jarayonlari bilan bog‘langanligi o‘qituvchi va talabalarning an‘anaviy va onlayn ta‘lim shakllarining integrallashgan kontekstida harakatlanish imkoniyatini taqdim etadi. Misol uchun, blended yondashuv til o‘qituvchilariga har ikki dunyoning eng yaxshisini tanlash imkonini beradi (ya‘ni, an‘anaviy va onlayn o‘qitish va o‘rganish usullari), bunda an‘anaviy va onlayn komponentlar biridan ikkinchisiga o‘zaro muammosiz o‘tishlari, aniqrog‘i uyg‘un holda bo‘lishi kerak [3]. O‘z navbatida, pedagogik oliy ta‘limda tahsil oluvchi bo‘lajak chet tili mutaxassislariga, ya‘ni talabalarga ta‘lim berishda e‘tibor qaratiluvchi eng muhim jihlardan biri – bu ularning chet tili ta‘lim muhitida til o‘rganuvchilar bilan samarali o‘quv jarayonlarini yo‘lga qo‘ya olishlariga yo‘naltirishdir. Shu bois, ayni ta‘lim shaklida talabalarning pedagogik oliy ta‘limda tahsil olishlarida ularni muayyan amaliy maqsadlar asosida tayyorgarlik ko‘rishlari o‘qituvchi tomonidan shakllantiriladigan

topshiriq va vazifalarga asoslanadi. Jumladan, blended yondashuv asosida til o‘qitish turli xil an’anaviy va raqamli texnologiyalarning “kommunikativ va vazifaga asoslangan jarayon” singdirilgan ekologiya sifatida ko‘rilishi kerak [4]. Demak, chet tili ta’limi misolida kommunikativ va vazifalar asnosida olib boriluvchi faol blended ta’limi muhiti to‘laqonli integrallashgan jarayonlardan iborat bo‘ladi.

Ikkinchidan, blended til ta’limi shaklida o‘qituvchining amaliy dars mashg‘ulotlari doirasida butun jarayonni boshqarishdek muhim vazifasi unga har ikki platformada, ya’ni an’anaviy va raqamli ta’lim platformalarida o‘quv rejalari va materiallarini turli ko‘rinishda taqdim qilish, qayta rejalashtirish kabi istiqbolli imkoniyatlarga zamin yaratadi. Masalan, mazkur yondashuv yuzma-yuz tarzidagi mashg‘ulotlar bilan birga keladigan onlayn talqinlarning bir yoki har qanday kombinatsiyasini, ya’ni ijtimoiy mediadan foydalanish, muammoni hal qilishning o‘yin shakli, bir-birlari bilan yoki mehnat faoliyati ishtirokchilari bilan video konferensiyalar o‘tkazish, rolli o‘yin mashg‘ulotlari, virtual ta’lim tizimlari, raqamli interaktiv viktorinalar yoki jumboqlar va turli ko‘rinishdagi simulyatsiyalargacha bo‘lgan keng ko‘lamni qamrab olishi mumkin [5]. Bu kabi bir qator kombinatsiyalar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida uzluksiz va uzviy hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun sharoit yaratib, undagi sifat va mazmun omillariga bevosita ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi.

Uchinchidan, blended ta’lim shakli nafaqat an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarining, balki mustaqil ta’lim komponentlarining ham o‘zaro mutanosiblikda takomillashtirilishiga xizmat qilishi mumkin. Zero, blended ta’lim to‘g‘risida qayd etilgan izohlarda ham bu jihatga duch kelish mumkin (2; 6) va mazkur uch xil ta’lim shakllarining pedagogik oliy ta’limdagi ijobiy natijalarini aynan chet tili ta’limining bo‘lajak mutaxassislarining har tomonlama raqobatbardosh va bilimli kadr bo‘lishlarida qulay va samarali integrallashgan ta’lim muhiti sifatida e’tirof etish mumkin. O‘z o‘rnida aytish mumkinki, blended til ta’limning mazkur uyg‘unlikdagi tuzilmasi yordamida an’anaviy ta’limda (1) o‘qituvchining talabalar e’tiboriga nazariy ma’lumotlar va materiallar bilan dastlabki taqdim etishi, mavzu va uyga berilgan

topshiriqlar ustida muhokama olib borish, masofaviy ta'lim shaklida (2) talabalarning o'tilgan mavzular yuzasidan bilimlarini nazorat qilish, baholash va qo'shimcha axborot-o'quv materiallari bilan ta'minlab borish, mustaqil ta'lim shaklida (3) esa o'qituvchining talabalarga kerakli kasbiy ko'nikmalar ustida qo'shimcha bilim olishlariga va mahoratlarini tizimli oshirib borishlariga shart-sharoit yaratish mumkin.

Xulosa shuki, pedagogik oliy ta'lim va blended til ta'limining chet tili ta'limi misolidagi o'zaro integrallashgan tatbiqi yuqorida tilga olingan bir qator istiqbolli imkoniyatlarga erishish yo'lida bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan global dunyo kontekstining talablariga monand o'quv-ta'limiy islohotlarni amalga oshirishga ko'mak beradi. O'z navbatida, bu amaliyotdagi eng muhim jihat har ikki tomon (o'qituvchi va talaba) ning tizimli va puxta o'ylangan dastur asosidagi faol harakatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrigi // "Xalq so'zi" gazetasi. – № 213 (8275). (30.09.2022)
2. Whittaker C. Blended learning in EFL: Adopting a principled approach to integrating technology // R. Al-Mahrooqi, T. Salah. (Eds.), *Using technology in foreign language teaching*. – 2014. – Newcastle upon Tyne, UK: Cambridge Scholars Publishing. – pp. 8-29.
3. Dewar T., Dave W. Blended learning research report. – Canada: Calliope Learning. – 2004.
4. Hinkelman D. Blending technologies in second language classroom (2nd ed.). – UK: Palgrave Macmillan. – 2018.
5. Hamilton J., Tee S. Smart utilization of tertiary instructional modes // *Computers & Education*. – 2010. – № 54(4). – pp. 1036–1053. URL: <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2009.10.009>.

6. Whittaker C. Conclusion // B. Tomlinson, C. Whittaker (Eds.), *Blended learning in English language teaching: Course design and implementation*. – 2013. – UK: British Council.

FENTEZI VA ERTAK NISBATI

Saidova Nozima Axrorovna
O‘zDJTU stajyor-tadqiqotchisi
saidova_nozima@mail.ru

Adabiyotshunoslar fentezi janriga qahramonlik eposi, afsona, risarlik romani, adabiy ertak, sevgi romanlari, tarbiya romanlari, “inisiyasiya” romanlari, gotik roman, ramziy okkultizm-tasavvuf adabiyoti hamda postmodernizm romani va boshqa janr unsurlari xos deb ta’kidlashadi [1]. Shunday qilib, fentezi asosida har doim yoki qayta ishlangan mifologik tizim yoki muallifning original mifopoetik konsyepsiyasi turadi va uning eng muhim vazifasi makrokosm tizimida mikrokosm bo‘lgan inson yashaydigan ikkilamchi dunyo yaratish sanaladi.

Ertak – estetik funksiyaga ega bo‘lgan og‘zaki xalq ijodi na’munasi bo‘lib, eng asosiy xususiyati reallikka emas, balki tasavvurga asoslanadi [2].

Ertaklarda uchraydigan qahramonlar g‘ayritabiiy jonzotlar, odamlar, hayvonlar hamda obektlarda bo‘linadi. Hammaga ma’lum bo‘lgan hayvon va o‘simliklar ichidan ertaklarda aynan mif bilan bog‘liqlari ko‘proq foydalaniladi, bular orasida, uy hayvonlarida echki, qo‘y, ot, sigir, it, mushuk, yovvoyi hayvonlardan ayiq, sher, bo‘ri, qushlardan oqqush, qarg‘a, o‘rdak, kabutar, hasharotlardan pashsha, ari, o‘simliklardan esa qamish, terak, qayin kabilar ko‘p uchraydi. Rus sehrli ertaklarida tilga olinadigan g‘ayrioddiy obrazlar sirasiga sehrGAR, afsungar, vedma, babayaga, koshshey, bogatir kabilar kiradi. Bir ko‘zli, uchko‘zli, uch boshli ilon kabi ortiqcha tana a’zosiga ega bo‘lgan g‘ayritabiiy obrazlar ham folklyor obrazlar sanaladi [3].

Oldingi boblarda tahlil qilingan fentezi janriga berilgan ta’riflarga ko‘ra, fentezi afsona va ertakga asoslangan: “*fentezi – fantastik ertakning bir turi*”[4]; “*qadimiy mif elementlaridan foydalanadi*”[5]; “*turli xalqlarning ertaklari, afsonalari va*

asotirlarining butun arsenalidan xayoliy asar yaratish uchun foydalanish mumkin”[6]; *"Fentezi - bu ertak, ilmiy fantastika va sarguzashtli ritsarlik romanining o'ziga xos kombinasiyasidir"* [7].

"Tashqi parametrlariga ko'ra, fentezi fantastik ertakning o'ziga xos turidir" [8]. J.R.R Tolkiyen o'zining "Uzuklar hukmdori" dostonini ertak deb atagan, ammo, ushbu asar yaratilgan 50-yillarda "fentezi" atamasi hali mavjud emas edi. Tadqiqotchilardan biri "Uzuklar hukmdori" asarini Angliya adabiy ertaklari qatoriga kiritib: "Bu fantastika emas!" [9] desa, tanqidchi V. Gubaylovskiy esa aksincha faqat bittagina kitobni fentezi deb hisoblash mumkin, u ham bo'lsa "Uzuklar hukmdori" degan fikrni bildirdi [10]. Darhaqiqat, tashqi ko'rinishi borasida fenteziga eng yaqin janr bu sehrli ertak bo'lib, buni S.L. Koshelev o'zining "J.R.R. Tolkiyenning "Uzuklar hukmdori" asarining janriy tabiati" maqolasida mashhur eposda 31 ta Propp funksiyasidan 25 tasini mavjudligini kashf etish orqali isbotlab bergan [11]. Har ikkala janrda ham o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, sezilarli farqlar ham ko'rsatib o'tilgan. Dastlabki farq, bu "kvest" (inglizcha "yo'l", "qidiruv")ning maqsadi bo'lib, ertaklarda ilohiy qobiliyat, cheksiz bilimga ega bo'lgan qahramonlar maxluqlar bilan kurashadilar yoki mo'jzaviy predmetlar izlab topadilar va bularning barchasi shaxsiy maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladi. Fentezi asarlarida esa ertaklardan farqli o'laroq Xaos va Kosmos o'rtasida tabiiy muvozanatni o'rnatish uchun turli kvestlardan o'tadilar.

Rus olimasi Ya.V. Korolkova "adabiy ertak va fentezining nisbati" maqolasida ushbu ikki janrning ildizi bitta – xalq ertagi deb ataydi. Fentezida ham ertakda ham "mo'jiza" bu hayot normasi sanaladi. Bundan tashqari, bunday asar qahramonlari aniq belgilangan xarakter xususiyatlariga ega bo'ladilar, ya'ni omadsiz yo a'lochi qahramonlar yurish-turishi, o'zini tutishidan tezda payqab olinadi [12].

Xulosa qilib aytganda, fentezi janri sof shaklda emas balki, bir nechta janr elementlarini o'zida mujassamlashtirgan qarishiq janr sanaladi. Ushbu maqolamizda sanab o'tilgan ertak xususiyatlaridan bolalar fentezisi yaxshilik va yovuzlik orasidagi kurash, qahramonlarning ijobiy va salbiyga bo'linishi, folklyor obrazlar hamda

V.Propp sanab o‘tgan sehrli ertak funksiyalarini o‘z jarniy xususiyatlari sirasiga qo‘shib olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Русская фантастика XX века в именах и лицах: Справочник. Под ред. М.И. Мещеряковой. – М.: Мегатрон, 1998. – с. 22.
2. Народные знания. Фольклор. Народное искусство. Свод этнографических терминов и понятий. Вып.4.-М.: Наука, 1991.-с.114.
3. Е.С. Новик. Система персонажей русской волшебной сказки.
<https://www.ruthenia.ru/folklore/novik8.htm>
4. Осипов А.И. Фантастика от «А» до «Я» (основные понятия и термины): краткий энциклопедический словарь. М.: Дограф, 1999. С. 320.
5. Новейший словарь иностранных слов и выражений [Текст]. – М.: Современный литератор, 2005. – 976с. (НСИСВ).
6. Первый толковый большой энциклопедический словарь [Текст]. – СПб., М.: Рипол-Норинт, 2006. – 2142с. (ПТЭС).
7. Белокурова, С.П. Словарь литературоведческих терминов [Текст] / С.Н. Белокурова. – СПб.: Паритет, 2006.-стр190.
8. Перумов Н. Я люблю гномов, а они любят пиво. Мир за неделю. – 2000.– №4.с.320. 7 Геворкян Э. Чем вымощена дорога в рай. Э.Геворкян. Антиутопии XX века. –М., 1989.с.11
9. Мамаева Н.Н. Это не фэнтези! (в каком же всё-таки жанре писал английский писатель?) Н.Н. Мамаева «Уральский следопыт». – 2001. – №9. – С.48.
10. Губайловский В. Обоснование счастья: О природе фэнтези и первооткрывателе жанра / В. Губайловский // Новый мир. – 2002. – №3. – С. 174 – 185.
11. Кошелев С.Л. Жанровая природа «Повелителя колец» Толкина .С.Л. Кошелев . Проблемы метода и жанра в современной литературе: Сб.науч.ст. – М., 1981. – Вып.6

12. Королькова Я. О соотношении литературной сказки и фэнтези // Вестн. Томского гос. пед. ун-та. – 2010. – № 8. – С. 142–144.

HUQUQIY XIZMAT KO‘RSATISHDA ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Abdullayeva Nargiza Suyun qizi

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan qonunchilik hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, joylarda aholini tashvishga soluvchi huquqiy muammolarni hal etish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o‘z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma’lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas’uliyati sezilarli ravishda oshmoqda. Shu bilan birga, “Yangi O‘zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini ro‘yobga chiqarish adliya organlari tizimida ma’muriy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta’minlash hamda mavjud ma’muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda [1]. Yaqin istiqboldagi innovatsion taraqqiyotimizning dasturilamali bo‘lgan Harakatlar strategiyasining birinchi yo‘nalishi ham aynan davlat boshqaruvi tizimi va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarga bag‘ishlangani bejiz emas. Yangi O‘zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan yuksak g‘oyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Bu borada hozirga qadar qilingan sa’y-harakatlarni tahlil etsak, quyidagi muhim jihatlarni ko‘rish mumkin:

1. Xalq bilan muloqot qilish, insonlar dardi, muammolarini samarali, tezkor hal qilishning sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Olib borilgan ishlar samarasi o‘laroq, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalari bo‘yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, yillar davomida to‘planib qolgan muammolarni yechish, sohani to‘laqonli tartibga solish amalga oshirilmoqda;

2. Inson manfaatlarini ta‘minlash, odamlar bilan muloqot qilish, xalqning dardu tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish va hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Mazkur tuzilmalar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, shuningdek, joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish mexanizmi va davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi mas‘uliyatini oshirish, ularning faoliyatini baholash mezoniga aylandi. “Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar portali ishga tushirildi. Fuqarolarga Oliy Majlis palatalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga Elektron jamoaviy murojaat berish imkoniyati yaratildi. Murojaatlar bilan ishlash tizimining qonunchilik asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi dasturining qo‘shimcha qulayliklarga ega yangi versiyasi ishlab chiqildi:

3. Normarkazlashtirish siyosati namunasi o‘laroq, “hududlardagi muammoni, eng avvalo, o‘sha hududda ishlaydigan va yashaydigan insonlar yaxshi hal qila oladi”, degan fikrdan kelib chiqqan holda davlat apparatining institutsional tizimi qayta ko‘rib chiqilib, uni optimallashtirish, samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi;

4. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimiga innovatsion yondashuv joriy etilib, fuqarolarga nisbatan byurokratik sansolorlik, sarsongarchilik holatlarini tubdan isloh qilishda katta qadamlar tashlandi. Avvallari fuqarolar turli norasmiy to‘lovlar, korrupsiya holatlaridan aziyat chekkan bo‘lsa, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilining kamaytirilishi hisobiga bunday muammolarga chek qo‘yilmoqda.

Mamlakatimizning hozirgi mavjud innovatsion rivojlanish holatining tahlili natijalarini inobatga olgan holda huquqni qo'llash amaliyoti va davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini kompleks tahlil qilish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi [2]" ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq huquqni qo'llash amaliyoti va davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini kompleks tahlil qilish bo'yicha bir qator amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Ular quyidagilar:

1. "E-SNARTNOMA" yagona elektron portalini yaratish orqali yagona elektron portalini joriy qilish orqali shartnomalarni yagona platforma orqali tayyorlash va ular bilan ishlash jarayonini soddalashtirish, uni boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini yaratish;

2. Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan kelgusida xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar sonini oshirish orqali kelgusida bosqichma-bosqich tuman va shahar darajasidagi davlat organlariga malakali yuridik xizmat ko'rsatilishini kengaytirish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash;

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron — "E-qaror" tizimi funksional imkoniyatlarini kengaytirish orqali hokimliklarning faoliyatida qonun ustuvorligini yanada ta'minlash;

Huquqni qo'llash amaliyotida takliflarni aniqlash va ishlab chiqish uchun jamoatchilik fikrini o'rganish uslubiyotini ishlab chiqish va tasdiqlash orqali qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda keng jamoatchilik fikrini inobatga olish va huquqiy muammolarni aniqlashning samarali mexanizmini yaratish;

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga quyidagilarni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritish:

yangi deputatlik nazorat shakli — "kengash so'rovi"ni joriy etish orqali mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini oshirish;

Kengashlarga yuklatilgan va turli hujjatlarda nazarda tutilgan 20 dan ortiq vazifalarni bir hujjatda jamlash orqali mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar ustidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Mamlakatimizda huquqni qo‘llash amaliyoti va davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi innovatsion islohotlar samarasi natijasi sifatida adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas’uliyati yanada kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-89-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoniga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.

4. <https://strategy.uz/index.php?news=1070&lang=uz>

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ: ПУТИ ПОЯВЛЕНИЯ И ИНТЕГРАЦИЯ

Амонова Замира Буриевна
Соискатель УзГУМЯ
x-zamira-x@mail.ru

Насыщенный бурными политическими, экономическими, общественными и прочими событиями современный мир, сопровождается образованием новых слов, которые благодаря глобализации или значимости того или иного явления, могут появляться одновременно в нескольких языках. С развитием общества, с появлением новых реалий, предметов и явлений, с интенсивно протекающими общественными и политическими процессами возникает необходимость их номинации. Язык начинает динамично обновляться. Большое количество неологизмов возникает в наиболее яркие периоды истории человечества: во времена революций, государственных преобразований, изменения общественного строя. Новые слова и новые выражения возникают также в результате потребности самого общества в обозначении каких-либо новых явлений и событий.

За последнее десятилетие появилось большое количество новых слов в современном немецком языке. Приведённые ниже примеры появлений новых лексем являются более распространёнными на наш взгляд:

– происходящие события политического характера в Германии (выборы глав страны, жизненный образ и условия после приёма беженцев из разных стран, проводимые реформы внутри государства, распространение вирусных заболеваний, охватившее всё общество и т.д.);

– события вокруг государства и участие во внешних отношениях (выход Великобритании из Европы и ЕС, в котором Германия выступает в качестве одной из стран-лидеров, экономическое положение в сфере импорта

природных и других ресурсов из азиатских и европейских стран, война в Украине и связанная с ней политика эвакуации и помощи населению).

Общественно-политические неологизмы связаны с определённым периодом развития, придерживаясь динамического характера и часто встречаются в речи, сообщениях и обращениях политических лидеров, событиях политической сферы и интегрируются позднее в обычный повседневный общественный обиход. Они проходят стадии как “возникновение – восприятие общеязыковой лексикой – принятие языковой нормой – лексикографическая интеграция в лексическую систему языка [3]. Похожее описание интеграции неологизмов с словарный состав внесла в своих исследованиях русский лингвист Розен. По её критериям неологизмы в немецком языке распознаются по большому количеству регистраций [2], по разнообразию источников, в которых зарегистрировано слово, по независимости слова, т.е. по возможности реализации слова без речевых поддержек, по наличию словообразовательных дериватов разного рода, возможных употреблений - образных, метонимических, грамматических, которые свидетельствуют об особенности инноваций языковым сознанием. Противоположного мнения Х.-Х. Люгер отмечает использование новых обозначений, которые ещё не зафиксированы в словарях. Появление новых областей знаний, новых терминов особенно заметно в языке прессы, нацеленной на быстрое распространение информации обо всём новом [1]. В современные немецкие газетные тексты проникает всё больше разговорных, чаще всего «самодельных» слов, которые затрудняют понимание.

Большинство новых слов в немецком языке состоят из двух и более лексем. Такие словосложения на базе слов, уже существующих в языке, является характерной особенностью немецкого языка. Это связано с тем, что слова-композиции, которые состоят из двух и более слов, являются удобным средством для того, чтобы передать сложные понятия в сжатой форме. Такие слова могут существовать в рамках определенной публикации некоторое время, а могут начать свой независимый путь, получить широкое распространение и попасть в

словари. Одним из таких словосложений является *Corona-Virus*, описывающее самое трагическое событие 2019-года – возникновение и стремительное распространение коронавируса, затронувшее все государства. Слово, которое в результате этого мгновенно вошло во все языки и стало сегодня ключевым во всех мировых новостных сообщениях, заинтересовало многих в Германии с языковой точки зрения. Частотность употребления слов указывает на постоянно меняющийся интерес общественности к определённым темам. Например, такие понятия, как *Währungsreform*, *Ostverträge*, *Friedenbewegung*, *Migrationstoleranz*, *GroKo* были связаны с известными событиями в политике, судя по частотности их употребления в прессе в определённый период времени.

На ряду с многокомпонентными немецкими словами важную роль играют и заимствования, в особенности, англицизмы в обогащении словарного состава немецкого языка. Заимствование - явление не новое и их появление в немецком языке обосновано различными историческими событиями, преобразованиями в социальной, общественно-политической, промышленной и иных сферах, связано с изменением внутрикультурного баланса Германии. Английская и американская культуры значительно повлияли как на мир в целом, так и на Германию. Они обычно замещают язык там, где возникают сложности со своим языком. Заимствования обычно соответствуют системе языка-реципиента (стороне, принимающей иностранный язык), меняя написание, либо ударение в оригинальном слове: *Desintegration*, *First-Lady*, *Interregnum* [4].

Подводя итог, можно обратить внимание на то, что список общественно-политических неологизмов постоянно пополняется. Это происходит на фоне изменений общественно-политических условий, отражающих новые реалии внутри- и внешнеполитической, общественной, культурной, экономической жизни государства. Следовательно, изучение общественно-политических неологизмов, и новой лексики в целом, важно как для описания современного состояния немецкого языка, так и его структурно-семантического анализа и сопоставления с другими языками.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Lüger H.-H. Pressesprache / H.-H. Lüger. – 2., neu bearbeitete Aufl. – Tübingen: Niemeyer, 1995. – 136 S.
2. Kinne M. Der lange Weg zum deutschen Neologismenwörterbuch: Neologismus und Neologismenlexikographie im Deutschen: zur Forschungsgeschichte und zur Terminologie, über Vorbilder und Aufgaben // Neologie und Korpus / hrsg. von Wolfgang Teubert. Tübingen: Günter Narr Verlag, 1998. S. 63-110.
3. Розен Е. В. Немецкая лексика: история и современность: Учеб. пособие / Е.В. Розен. – М.: Высш. шк., 1991. – 96 с.
4. Steffens D. Deutsch-russisches Neologismenwörterbuch. Neuer Wortschatz im Deutschen 1991–2010 [Немецко-русский словарь неологизмов. Новая лексика в немецком языке 1991-2010] / D. Steffens, O. Nikitina. – 2 Bde. – Mannheim: Institut für Deutsche Sprache, 2016. – 598 S.

FRANSUZ TILIDAGI TOPONIMLARINING SO‘Z YASASH MODELLARI WORD- FORMATION MODELS OF FRENCH TOPONYMS

Sunnatova Guljahon Erkin qizi
SamDCHTI
Mustaqil izlanuvchi
gsunnatova9@gmail.com

Fransuz toponimlarning ma’nosini tahlil qilganimizda, ularning so‘z yasalish sxemalariga to‘xtalib o‘tish zarur, ularning eng keng tarqalgan va tez-tez uchraydigan yasalish modellari *oddiy, qo’shma va murakkab*dir. Biroq, bu tasnif har bir tilning o'ziga xos morfologik qoliplarini hisobga olgan holda batafsilroq bo'lishi mumkin.

A. *Oddiy toponimlar*: umumiy nomdan NP (*nom propre* ya’ni atoqli ot) ga bevosita o‘tish natijasida hosil bo‘lgan geografik ob’yektlar nomlaridir. Asl ism ot bo'lishi mumkin: *Ville, Bois, Champs*. Bunday model asosan *appellativlar* - geografik atamalar

uchun qo'llaniladi, ular allaqachon o'zlarining asosiy semantikasida yangi yaratilgan ob'ekt uchun zarur xususiyatlarni aks ettiradi.

Mikrotoponimiyadagi Fransiya toponimlari orasida quyidagi misollar keltirilgan: *Ville* (Fransiya shimolidagi kichik shahar), *Port* (janubdagi qishloq), *Château* (mamlakatning markaziy mintaqasidagi qishloq). NC (*nom commun*-turdosh ot) dan NP ga o'tish natijasida rus tilidagi apellyatsiya funksiyasining semantikasining qisqarishi natijasida hosil bo'lgan o'xshash onimlar (*Gorodets*, *Bor* - shahar nomlari, *Ozero* - qishloq nomi).

B. *Affikslardan yasalgan joy nomlari (Murakkab toponimlar)*. Bu modelni nomlashda qo'llanganda toponimga aylangan to'g'ri yoki umumiy ot affikslarni "bosadi". Ushbu turdagi nomlar sintetik tillarda juda keng tarqalgan. Analitik til bo'lgan zamonaviy fransuz tilida bu tur mavjud, garchi u asosiy bo'lmasa va tilning tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Masalan, *Auneil* toponimi lotincha -ölus qo'shimchasidan ishlangan -eil [øj] qo'shimchasi qo'shilgan "aune - aulne" nomidan kelib chiqqan [Горпинич 2008: 66]. Affikslardan hosil bo'lgan toponimlarni o'rganish chuqur etimologik tahlil va til tarixiga murojaat qilishni talab qiladi, chunki qo'shimchalarning aksariyati lotin tilidan kelib chiqqan: -y [wa] <lat. -etum; -ière <lat. -aria; -y <lat. - (i) -acum [Пежинская 2013].

Ushbu modelga muvofiq shakllangan toponimlar madaniy ahamiyatga ega tushunchalardir, chunki oldingi tur ichki shaklning mavjudligi bilan tavsiflanadi, ammo nom bilan sodir bo'lgan tarixiy o'zgarishlar tufayli bu unchalik aniq bo'lmasligi mumkin: *cassanos* > *chesne* > *chêne* («*chêne*») [Walter 1997: 42-44], *Chesney* toponimi oraliq shakldan qo'shimcha yordamida shakllangan, zamonaviy tilning morfologik tahliliga ixtisoslashgan manbalarsiz, bu qiyin.

Xristian diniy komponenti toponimikada avliyolar ismlaridan foydalanib, murakkab toponimlar yaratish orqali mavjud. Bu borada *Martin-Église*, *Boiry-Saint-Martin*, *Mont-Saint-Martin* toponimlari orqali madaniy ma'lumotlarni uzatuvchi *Saint-Martin* (Fransiya homiylaridan biri) nomi muhim ahamiyatga ega. Ushbu

avliyoning alohida hurmati Fransiyada 200 dan ortiq muassasalar mavjudligidan dalolat beradi, ularning nomi *Saint-Martin* nomini o'z ichiga oladi.

D. **Qo'shma toponimlar.** Ushbu tur asosiy turlardan biridir, chunki u nafaqat ob'ektni o'xshash ob'ektlar orasidan ajratishga, balki nomdagi tegishli xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Uzluksiz tanlab olish usuli yordamida toponimlarning miqdoriy hisobi (tadqiqot uchun *E* harfi bilan boshlanadigan barcha qayd etilgan oikonimlar tanlab olindi) umumiy sonidan (877 birlik) 28 % (247 birlik) ushbu model bo'yicha tuzilganligini ko'rsatdi.

Qo'shma toponimlar bir necha turdagi nomlar bilan ifodalanadi:

1. Sifat-ta'rif geografik atamaning birikmasi, qoida tariqasida, shahar *ville, fort* o'rnida yoki o'rmon yaqinida va hokazolarda shakllangan topoob'ektning tarixiy ildizlarini kuzatish imkonini beradi: *Blanquefort, Abbeville*; yoki musbat sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan formantlar: *-beau, -belle, -bon* va boshqalar: *Bonlieu, Bellefontaine*.

2. Aniqlovchi qism predmetlarning nisbiy belgilarini bildiruvchi (*vieux-neuf, grand-petit*) ot va sifatdosh birikmasi.

3. Ot va geografik atamaning predlogsiz birikmasi. Ilgari ta'kidlanganidek, murakkab toponimlar turtki bo'lib, ular turli semantik sohalarning elementlarini o'z ichiga olishi mumkin: flora, fauna, dinlar, ranglar va boshqalar. Madaniy ma'lumotlar shu tarzda uzatiladi. Fransiya toponimiyasida madaniy ahamiyatga ega bo'lgan "xo'roz" (*le coq*) belgisini eslatuvchi onimlar mavjud: *Dommartin-le-Coq, Chantecoq, Montignacle-Coq*, ular nafaqat fauna olamiga, balki yashirin madaniy aktualizatorlarga ham tegishli. til tizimi, bu "jangovar ruh" (*esprit combatif*) salohiyatini amalga oshirish.

Dunyo o'qi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim madaniy ramz "eman" (*le chêne*) zamonaviy toponimikada ham mavjud bo'lib, bu formant bilan toponimlarning ko'pligi: *La Villeneuve-au-Chêne, Le Chêne, Lessard-et-le -Chêne, Saint-Julien -en-Beauchêne* - uning ahamiyatini ko'rsatadi.

Qo'shma toponimlar nihoyatda xilma-xildir. Endi bu turdagi tuzilmalarning yadroviy turi *NP + de + NP, NC + de + NP* modelidir: *Les Baux-de-Provence, Sainte-Marie-de-Chignac, Civray-de-Touraine*. Bu yerda konstruktsiya *de + NP* hal qiluvchi rol o'ynaydi, xususiyat, tegishli yoki joylashuvni ko'rsatadi. Yadro hosil bo'lish turi *NP (NC) + à + NP, NP (NC) + en + NP* gacha bo'lgan qoliplarni ham o'z ichiga olishi mumkin, ular motivatsiyalangan va bir topoob'ektning boshqasiga nisbatan joylashuvi haqida qo'shimcha ma'lumot olib boradi: *Angoville-au- Plaine, Champrond-en-Perchet*.

Qo'shma toponimlarning shakllanishida "*article + nom*" kabi qonuniyatni ham ta'kidlash kerak: *La Vacherie, La Rochelle, Le Havre*. Ular tashqi xususiyatlariga ko'ra qo'shma toponimlarga mansub bo'lishiga qaramay, semantik jihatdan bu guruh hosila emas, sodda bo'lishga intiladi, chunki artikl faqat grammatik ma'noga ega va toponimning individuallashtiruvchi xususiyati tufayli qo'shilmaydi.

Ta'riflangan modellarning mahsuldorligi nafaqat real ob'ektlarni nomlash uchun yangi toponimlarni yaratishga, balki ulardan darhol toponim sifatida qabul qilinadigan okkazializmlarni yaratishda foydalanishga imkon beradi: Shishadagi: *Caducée-sur-Pare-brise (San-Antonio)*, bu yerda muallifning parodiyasi. motivatsiyalangan ichki shaklga ega bo'lgan kichik koloniyalardan tashkil topgan nomlardir.

Shunday qilib, so'z yasash modellari, bir tomondan, nomlanish vaqtida ahamiyatli bo'lgan belgilarni aks ettirishga, ikkinchi tomondan, toponimga xos nomni bildirgan holda umumlashgan ma'nolarni bildirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Суперанская А.В. Эволюция теории имени собственного в Европе // Вопросы филологии. – 2002. – №3. – С. 5–18.
2. Горпинич В.О. Катоїконімія французької мови: монографія. – Д.: ДНУ, 2008. – 214 с.
3. Пежинская О.М. Французские топонимы, производные от фитонимов [Электронный ресурс] // «Инновации в науке»: Материалы XVII международной заочной научно-практической конференции. (25 февраля 2013 г.) / URL: <http://sibac.info/index.php/2009-07-01-10-21-16/6737> 2013-03-06-15-33-45.

4. Walter H. L'aventure des mots français venus d'ailleurs / H. Walter. Paris: Robert Laffont, 1997. – 344 p
5. Dictionnaire ouzbek - français. - Paris: 2001. – 321 p.
6. Deroy L., Mulon M. Dictionnaire de noms de lieux. – Paris: Le Robert, 1992. – 526 p.
7. Larousse. Petit Larousse en couleurs.- Paris: Libr.Larousse. 1988.–1920p.


SEMANTIC AND FUNCTIONAL FEATURES OF LEXICAL UNITS IN ENGLISH DISCOURSE

Madiyorova Madinabonu Azimboy qizi

Master of Uzbekistan State University of World Languages,
madinabonumadiyorova@gmail.com

An account of lexical semantics must be somehow embedded in a more general theory of the **mentallexicon**, so let us begin with the question: What is a lexical item? While it is conventional to think of a word as a unitary entity, many researchers in lexical semantics assume some version of Jackendoff's theory of parallel architecture, according to which a lexical item is a relation, rather than a thing. At a minimum, a word consists of a phonological representation, linked to an independent syntactic representation, linked to an independent conceptual representation.

While this general associative concept is useful, more precise **lexical relations** are often identified to clarify the links between particular words, including homonymy, polysemy, synonymy, antonymy, hyponymy, and meronymy, which will be briefly examined in turn. **Homonyms** are unrelated meanings of words that either sound the same (homophones) or are written the same (homographs). Examples of homophones of the word *right* /rait/ "correct" are shown below, with links between (simplified) phono-logical (PS), syntactic (SS), and conceptual structures (CS).



When different senses of the same phonological word are related in identifiable ways, this is termed **polysemy**. Thus *right* in the sense of *correct* is closely linked to such meanings as *right conduct* (= just, proper), *the right clothes* (= suitable, appropriate), or *the right way round* (= principal side of an object). The distinction between homonymy and polysemy is reflected in many dictionaries, as homonyms usually have separate entries, while polysemous items are listed under a single entry. Thus *bark*¹ (the harsh sound made by a dog) is kept distinct from its homonyms, *bark*² (the protective covering of a tree) and *bark* (a kind of boat). Within these entries, polysemous use is listed in terms of nuances or aspects of meaning, including related shifts in syntactic category. So *bark* may cover usages such as (Noun 1) *the bark of a dog*, (Noun 2) similar sounds, such as *coughs* or *gunfire*, (Verb 1) *to make the sound of a bark*, and (Verb 2) *to speak gruffly*, etc. (examples from *The American Heritage Dictionary*).

Count / Mass alternations

The lamb is running in the field.


John ate lamb for breakfast.

In the case of Figure / Ground reversals, a considerable number of nouns seem to alternate in sense between a physical object used to frame an opening, and the opening itself which is framed by that object (e.g., *window*, *door*, *gate*, *fireplace*, *hallway*, *room*). The intended sense is derivable only through linguistic context. That is, in the sentence *John is painting the door*, the door is an object, and in the sentence

John walked through the door, the door is an opening. Such examples make it clear that a theory of lexical semantic composition has to go beyond simply enumerating meaning components inside words. **Synonymy** is in some sense the reverse of homonymy: synonyms are words with different phonology but with the same, or approximately the same, meaning. However, while this is a well-known concept, taught to schoolchildren from a young age, it is rare that two lexical items can be truly interchangeable. The difference between reference and sense is useful to invoke in this case, as more often, supposed synonyms are often two separate senses with a common referent. Pairs such as the nouns *peace* and *calm*, the verbs *enjoy* and *like*, and the adjectives *funny* and *humorous*, can be substituted in some contexts and not others, and word choice is often contextually conditioned. On closer inspection, we find most words are polysemous, and that each sense of a word has different synonyms.

A related notion is **antonymy**, which refers to the link between words that are considered to be opposites. The semantic assertion of some words implies the negation of others, such that they can form binary pairs. If a book is *open*, this entails that it is not *shut*.

Hyponymy may be easily illustrated with either living things or artifacts. For example, a Dalmatian is a type of dog, and a dog is a type of mammal. In this case, the word *Dalmation* is a hyponym of *dog*, and *dog* is a hyponym of *mammal*. The word *armchair* is a hyponym of *chair*, which is a hyponym of *furniture*. Conversely, *mammal* is a hypernym of *dog*, and *dog* is a hypernym of *Dalmatian*, while *furniture* is a hypernym of *chair*, which is a hypernym of *armchair*.



It is important to remember that we are modelling lexical semantics in terms of the kinds of relations between words in the minds of individuals, and as such these types of hierarchies are not always reflective of scientific taxonomy (or the classification systems of, say, furniture manufacturers).

If hyponymy describes relations of inclusivity between categories of whole entities, the term **mero-nymy** refers to part-whole relations within entities. The words *hand* and *foot* are meronyms of the word *body*, just as the words *wheel* and *pedal* are meronyms of the word *bicycle*.

REFERENCES

- [1]. Balcom, P. (2017). Why is this happened? Passive morphology and unaccusativity. *Second Language Research*, 13(1), 1–9. doi:10.1191/026765897670080531
- [2]. Bowerman, M. (2016). Learning how to structure space for language: A crosslinguistic perspective. In P. Bloom, M. A. Peterson, L. Nadel, & M. F. Garrett (Eds.), *Language and Space* (pp. 385–436). Cambridge, MA: The MIT Press.
- [3]. Dowty, D. R. (2011). Thematic proto-roles and argument selection. *Language*, 67(3), 547–619. doi:10.1353/lan.1991.0021
- [4]. Emonds, J. E. (2010). *Lexicon and grammar: The English syntacticon*. New York: Mouton de Gruyter.
- [5]. Hwang, S. H., & Lardiere, D. (2013). Plural-marking in L2 Korean: A feature-based approach. *Second Language Research*, 29(1), 57–86. doi:10.1177/0267658312461496

BUYUMLAR INTERNETINING TARIXI VA KELAJAGI

Boboqulov Azizbek Rashidovich
TATU magistranti

Aqlli uyning markaziy qismi sifatida sensorli kompyuter orzusi kamida yarim asr davomida mashhur tasavvurni egallagan. Rey Bredberi kabi ilmiy-fantastik yozuvchilar va Jetsons kabi televizion ko‘rsatuvlar avtomatlashtirilgan uyni jonlantirishdi va ixtirochilar butun dunyo bo‘ylab ko‘rgazmalar uchun prototiplarni yaratishni boshladilar, uylarni o‘z-o‘zini tozalash g‘oyalarini va uning aholisi uchun o‘zini o‘zi harakatlantira oladigan mebellarni namoyish etishdi. Ushbu gizmosning aniq foydasi, asosan, uy ishlaridan ozod bo‘lish edi. 1959-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan Amerika milliy ko‘rgazmasida Whirlpool “Mo‘jizaviy oshxona” deb

nomlangan ko‘rgazmani yaratdi - bu kapitalistik Amerikadagi hayot qandayligini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan futuristik namoyish. Unga stolni tozalaydigan idishlarni yuvish mashinasi va pollarni supurish uchun proto-Roomba kiradi. “Amerikada biz ayollarning hayotini osonlashtirishni yaxshi ko‘ramiz”, dedi Richard Nikson Sovet Ittifoqi Prezidenti Nikita Xrushchevga ko‘rgazma maydonchasida zo‘rg‘a ovoz chiqarib.

Dastlabki aqlli uy ixtirolarining aksariyati avtomatik [boshqaruvlardan foydalangan](#), bu esa barmoqni ko‘tarmasdan biror narsani o‘chirish yoki o‘chirish imkonini beradi. Ammo ular boshqa hech narsaga ulanmagan va ularning funkcionalligi cheklangan edi. Bu 1983-yilda Internetning eng dastlabki versiyasi bo‘lgan ARPANET Internet protokollar to‘plamini (TCP/IP deb ham ataladi) qabul qilganda o‘zgarib boshlaydi. Protokol raqamli ma’lumotlarni [qanday uzatish](#), yo‘naltirish va qabul qilish bo‘yicha standartlarni belgilaydi. Aslini olganda, u zamonaviy internet uchun asos yaratdi.

Yillar [davomida IoT](#):

1990-yil Jon Romkey birinchi IoT qurilmasini yaratdi: u o‘z kompyuteri [bilan boshqaradigan toster](#).

1999-yil Kevin Eshton kompyuterning ko‘zlari va quloqlarini tasvirlash uchun “narsalar internet” atamasini kiritdi.

2000-yil LG o‘zining birinchi ulangan muzlatgichini 20 000 dollarlik [narx bilan taqdim etdi](#).

2008-yil IoT bo‘yicha dunyodagi birinchi konferensiya Shveysariyaning Tsyurix shahrida bo‘lib o‘tdi.

2010-Toni Fadell aqlli termostatni ishlab chiqaruvchi Nest [kompaniyasiga asos soldi](#).

2013-yil Oksford lug‘ati “narsalar internet” atamasini qo‘shdi.

2014-yil Amazon Echo dinamikini va Alexa ovozli yordamchisini taqdim etadi - bu aqlli uyni boshqarishning yangi usuli.

2016-yil Mirai botnet 600 000 dan ortiq IoT qurilmalarini zararli dasturlar bilan zararlaydi.

Bir kun kelib, buyumlarning interneti hamma narsaning internetiga aylanadi. Bizning dunyomizdagi obyektlar har doim bizni individual ravishda sezishi va reaksiyaga kirishishi mumkin, shunda aqlli termostat sizning tana haroratingizga qarab avtomatik ravishda sozlanadi yoki siz yotoqxonaga kirganingizda uy avtomatik ravishda qulflanadi. Atrofimizdagi buyumlar bizning xatti-harakatimizga qarab bizning nima istashimizni avtomatik holatda tahlil qilib, bu muammoni siz istagandek inson omilisiz o‘zi amalga oshiradi. Bu allaqachon sodir bo‘la boshlagan.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda 23 milliard ulangan qurilmalar mavjud edi. 2025-yilga borib sinoptiklar 75 milliarddan ortiq bo‘lishiga ishonishadi. Ushbu portlashning bir qismi odamlarning yashash xonasida o‘tirgan har doim yoqilgan, ma’lumot yig‘uvchi qurilma bilan qulayroq bo‘lishidan kelib chiqadi. Lekin bu mahsulot ishlab chiqaruvchilarning internetga ulanish uchun yangi narsalarni orzu qilishlaridan ham kelib chiqadi. Bu tasavvur sizning uyingizdan, hatto kiyimingizdan ham uzoqqa cho‘ziladi. Shuningdek, sizda aqlli ofislar, aqlli binolar, aqlli shaharlar bo‘ladi. Aqlli kasalxona xonalarida shifokorlar qo‘llarini yuvishlarini ta’minlash uchun sensorlar bo‘ladi, havodagi datchiklar esa shaharlarga sel va boshqa tabiiy ofatlarni bashorat qilishga yordam beradi. Avtonom transport vositalari internetga ulanadi va sensorlar bilan o‘ralgan yo‘llar bo‘ylab harakatlanadi, va hukumatlar buyumlarning interneti orqali uy xo‘jaliklarining energiya iste’molini kuzatish orqali o‘zlarining energiya tarmoqlariga bo‘lgan talablarni boshqaradilar. Buyumlar internetining o‘sishi kiber urushning yangi turlariga ham olib kelishi mumkin. Tasavvur qiling-a, yomon aktyor qishning qahratonida har bir aqlli termostatni o‘chirib qo‘yishi yoki internetga ulangan yurak stimulyatori va insulin nasoslariga buzib kirishi mumkin. U yangi sinf tizimlarini yaratishi mumkin: robot xizmatkorlari bo‘lganlar va bo‘lmaganlar.

Hozirgi kunda har qanday kasalliklar ko‘payib ketayotganligi sababli insondan insonga kasallik yuqishi mumkin, shu sababli insonlar o‘rniga robotlarning o‘zi

insonlarni davolashga dasturlangan bo‘lishi va uni masofadan mutaxassis olimlar kuzatib turishi zarur bo‘lganda boshqarishi mumkin bo‘ladi. Xitoy 2020-yil shifokorlarni yangi koronavirus kabi yuqumli kasalliklardan himoya qilish uchun shifoxona bo‘limlarida 5G bilan ishlaydigan robotlar kabi narsalarni sinab ko‘rishni boshlagan.

Buyumlar internerti qurilmalarini hakkerlar hujumidan himoyalashda juda ko‘p ishlar olib borilayapti. Bu sizning qurilmangiz sizga bekam-ko‘st xizmat qilishiga yordam beradi, aks holda sizning qurilmangiz hakkerlar uchun xizmat qiladi, bu esa juda yomon. Hozirgi kunda hayotimizning 50 foizini buyumlar boshqarmoqda, yaqin kelajakda 100 foizga yetishiga hech qanday shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.techtarget.com/iotagenda/definition/Internet-of-Things-IoT>.
2. IoT:<https://dzone.com/articles/the-internet-of-things-gateways-and-next-generation>.
3. <http://www.reloadde.com/blog/2013/12/6characteristics-within-internet-things-iot.php>.
4. <http://www.itu.int/en/ITU-T/gsi/iot/Pages/default.aspx>.
5. Martín S., Payam B., Francois C., Philippe C., Ovidiu V., Peter F. “Internet of Things Semantic Interoperability: Research Challenges, Best Practices, Recommendations and Next Steps”. European research cluster on the internet of things, IERC,2015.

IMPORTANCE OF TEACHING VOCABULARY TO EFL LEARNERS

Abdusalomova Ziyoda MuhammadSulaymon qizi

Student of Masters Degree Uzbekistan State

University of World Languages

ziyodaabdusalomova01@gmail.com

Vocabulary learning is one of the most essential parts of second language learning. However, at times this is a challenging task for most of the learners. In addition, the number of words needed to be learned to become proficient when learning foreign languages is too large to learn through direct learning. It should be enlarged with different activities to develop a depth of knowledge of unknown vocabulary. There are huge number of different ways and tactics of teaching and learning vocabulary, educators can choose any of them and implement to the classroom. For instance, flashcards, repeating one word over and over or enriching through watching movies or cartoons. However, Nagy et al. (1985) suggested that one of the most effective ways to produce large-scale vocabulary growth is through reading and also first language researches has shown that reading is the main way of learning new words (Horst et al., 1998; Nation, 2001; West & Stanovich, 1991).

